

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya
etilsin”

Fakultet dekani

____ S.Abdullayev

“___” _____ 2018-y

5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishi IV kurs 403-guruh
talabasi Asadova Zarnigor Nurullo qizining “Shahrisabz tumani folklori”
mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

_____ f.f.n.A.Tilovov,

Dialektologiya va folklorshunoslik kafedrasи
dotsenti

Taqrizchilar:

_____ f.f.n.Z.Rasulova
O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti
instituti “Folklorshunoslik”
kaferdasi katta ilmiy xodimi

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Dialektologiya va folklorshunoslik
kafedrasи mudiri,
f.f.d. T. Enazarov

“___” _____ 2018-y

TOSHKENT-2018

Malakaviy ishga berilgan “Folklorshunoslik va dialektologiya” kafedrasi

XULOSASI

Talaba Asadova Zarnigor Nurullo qizining f.f.n.A.Tilavov ilmiy rahbarligida “Shahrisabz tumani folklori” mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishi ko‘rib chiqildi va bu ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan Oliy o‘quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo‘yilgan talablarga to‘liq javob beradi.

Davlat Attestatsiya Komissiyasida ushbu ish himoyaga kiritilishi mumkin.

Asos: “Dilalektologiya va folklorshunoslik” kafedrasining 2018 yil _16-maydagi 20-son bayonnomasi

Kafedra mudiri:

f.f.d.T.Enazarov

«____» _____ 201_ yil

B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I

MAVZU: Shahrisabz tumani folklori

DAK qarori:

5120100-Filologiya va tillarni o’qitish (o’zbek tili) yo’nalishi 403-guruh talabasi Asadova Zarnigor Nurullo qizining “Shahrisabz tumani folklori”mavzusidagi

Bitiruv malakaviy ishi «_____» ga baholansin.

«____» _____ 2016 -yil

DAK raisi:

N.Mahmudov

DAK kotibi:

A.Xolmonov

**Алишер Навоий номидаги ТошДЎТАУ битиравчиси Зарнигор
Асадованинг “Шаҳрисабз тумани фольклори” мавзусидаги битирав
малакавий ишига**

ТАҚРИЗ

Мустақилликдан сўнг ўзбек халқ оғзаки ижоди намуналарини тўплаш, тадқиқ этиш ва нашр этиш масалаларига алоҳида эътибор берилди. “Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари” 100 жилдлиги туркумидаги китобларнинг нашрдан чиқа бошлагани, янги ташкил этилган Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетида “Фольклоршунослик ва диалектология” кафедрасининг очилгани фикримиз далилидир.

Эндиғи яна бир муҳим вазифа эса фольклор экспедицияларини янада жонлантириш, республикамизнинг барча ҳудудларида маҳаллий аҳоли вакиллари билан бевосита мулоқот ўтказиб, фольклор намуналарини йиғищдир. Бу долзарб ва хайрли ишни ҳудудлар кесимида босқичма-босқич амалга ошириш ҳам яхши натижа беради, деб ўйлаймиз.

“Шаҳрисабз тумани фольклори” деб номланган ушбу малакавий битирав иши истиқболдаги шу катта ишнинг бир бўлاغи, ўзбек фольклори намуналарини тўплаш, таҳлил қилиш йўлидаги дадил, хайрли қадамдир.

Талаба тўплаган ва таҳлилга тортган фольклор намуналаридан кўриниб турибдики, Қашқадарё вилоятининг Шаҳрисабз тумани ҳам юртимизнинг бошқа гўшалари каби бой ва ранг-баранг, поэтик жиҳатдан юксак фольклор хазинасига эга.

Биринчи бобда, Шаҳрисабз туманидаги тўй маросимлари фольклори ва мавсумий маросимлар фольклори намуналари таҳлилга тортилган. Талаба ёзиб олган ҳудуднинг фольклор намуналари умумўзбек фольклори анъаналари билан муштарак ҳамда ўзига хос ҳудудий-локал хусусиятларга эга.

Ишдаги таҳлил ва талқин ўзбек халқининг бой номоддий маданий мерос намуналарини ўрганиш ва уни келгуси авлодга, пировардида дунё халқларига етказиш, тарғиб қилишни галдаги муҳим вазифаларимиздан бири экани борасидаги хулосасига олиб келади. Мазкур ишни шу нуқтаи назардан қўллаб-қувватлаш ва келгусида кенгроқ аспектда давом эттирилиши тарафдориман.

Иккинчи боб чорвачилик, дәҳқончилик ва ҳунармандчилик билан боғлиқ меҳнат қўшиқларининг тадқиқига ажратилган. Ҳар бир турга мансуб меҳнат қўшиқлари ҳақидаги муҳтасар назарий маълумотдан сўнг аниқ мисоллар ёрдамида мавзуга ойдинлик киритилган.

Битириув малакавий ишига оид айрим таклиф ва мулоҳазаларимиз қуийидагилардан иборат:

1. Талаба тўплаган фольклорнинг энг сара намуналари, тўй маросимида оид фото лавҳалар ишга илова қилинса яхши бўларди.
2. Фольклор намуналарини айтиб берган респондентлар хақида маълумотнинг берилиши фойдадан ҳоли бўлмас эди.
3. Талаба ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институтининг Фольклор архивидаги шу ҳудуд фольклорига оид материаллар билан танишганда ишнинг мазмуни янада бойиган бўлар эди.
4. Талабанинг келгуси ишларида омад тилаб, мавзу юзасидан кенгрок изланиб, ушбу тадқиқотни давом эттиришини тавсия этган бўлар эдим.

Зебинисо Расулова

Филология фанлари номзоди,
ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва
фольклори институти, Фольклор
бўлими катта илмий ходими.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MUNDARIJA

Reja:

Kirish.

Asosiy qism.

I.	Shahrisabz tumani folklori va uning janr xususiyati.....	5
1.1.	Folklor-ma'naviyatimiz sarchashmasi.....	5
1.2.	To'y marosimlari.....	16
1.3.	Mavsum marosimlari.....	30
II.	Shahrisabz tumani mehnat qo'shiqlari.....	39
2.1.	Chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan mehnat qo'shiqlari.....	40
2.2.	Dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan mehnat qo'shiqlari.....	45
2.3.	Hunarmandchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari.....	50
III.	XULOSA	
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	
	Ilova	

KIRISH

Mavzuning dolzarbliji. Respublikamizda bugungi kunda xalqimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining hamma jahbalarida erishilayotgan yutuqlar, jahonning eng rivojlangan davlatlari bilan siyosiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-texnik sohalardagi aloqalarda erishilayotgan muvaffaqiyatlar bevosita yurtimizning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganligi bilan bog‘liqdir. Istiqlol sharofati tufayli xalq og‘zaki badiiy ijodiyotini to‘plash, sistemalashtirish, ommaviy va akademik nashrlarini amalga oshirish hamda keng ko‘lamli fundamental tadqiqotlar yaratish borasida yirik ishlarni amalga oshirib kelayotgan O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili, adabiyot va folklori instituti Folklor arxiviga mamlakatimizning boy madaniy merosni o‘zida mujassamlashtirgan noyob ilmiy ob’ektlaridan biri maqomi berildi. Folklor arxivi mamlakatimizning yetakchi ilmiy fondlaridan biri bo‘lib, unda saqlanayotgan materiallar o‘zbek filologiyasining taraqqiyotini belgilovchi yirik ilmiy ishlarning yaratilishi uchun manba bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodi xalqning o‘zligini namoyon etuvchi sohadir. Xalqning asosiy boyligi uning urf-odatlari va shu an’analari negizida shakllangan xalq og‘zaki ijodidir. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan islohotlar ichiga xalqning moddiy va ma’naviy boyliklarini asrash, ularni o‘rganish ham kiradi. Shu boisdan har bir geografik obyektning urf-odatlari, ma’naviy xazinasi o‘rganilishi tarixiy zaruratdir. Ushbu mavzu shu jihatdan olib qaraganda dolzarbdir.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Xalq og‘zaki ijodini o‘rganish uning tarixini o‘rganish bilan uzviy bog‘liqdir. Chunki urf-odatlar va qadriyatlar asrlar davomida shakllangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani folklorini o‘rganish va manbalarni aniqlash hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun tadqiqot jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi:

- Shahrисабз тумани фольклорининг бир қисми бо’лган маросим қо’шиqlарining tarixiy genezisi, tadrijiy rivojlanishini aniqlash, маросим удумлари bilan bog’liq holda badiiy xususiyatlarini tahlil qilish;
- Shahrисабз туманiga oid mehnat қо’шиqlarini topish, ularni o’rganish, shuningdek, alohida janrlarga ajratish, boshqa geografik hududlardagi mehnat қо’шиqlaridan farqli jihatlarini belgilagan holda tahlil qilish;
- Shahrисабз туманiga oid to’y маросимлари, mavsum маросимлари haqida ma’lumotlarni to’plib ularni tahlil qilish;

Bitiruv malakaviy ishi obyekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishning obyekti Shahrисабз туманiga oid xalq og’zaki ijodi namunalari, urf-odat va an’analari hisoblanadi. Faqatgina shu tuman hududida mavjud urf-odatlar, xalq og’zaki ijodi namunalarini boshqa geografik hududlar an’analari va folklori bilan qiyosiy aspektda o’rganish tadqiqot predmeti bo‘lib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy tadqiqot usullari. Ushbu bitiruv malakaviy ishini tadqiq etishda dialektik tafakkurning qonuniyatlarini poetik asarlar matniga tatbiq qilgan holda shakl va mazmun, makon va zamon, xususiylik va umumiylit tamoyillariga tayanish, tadqiqot jarayonida ko’zlangan maqsadga erishish uchun janrlar xususiyatidan kelib chiqqan holda tahlil qilish usullaridan foydalanish ishdan ko’zlangan asosiy tadqiqot usullari hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Mazkur bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida Shahrисабз туманiga oid folklor namunalari janrlariga ko’ra ma’lum bir guruhlarga ajratildi;
- Shahrисабз тумани фольклорининг boshqa geografik hududlar folklori bilan umumiylit jihatlari aniqlandi, farqli va alohida tomonlari belgilandi;
- Shahrисабз тумани folklor namunalari tilidagi estetik ta’sirchanligi faqat badiiy tasvir bilan cheklanib qolmay, xalqning kommunikativ maqsadiga ham xizmat qilishi misollar asosida tahlil qilindi;

– Xalq og’zaki ijodi urf-odat va an’analar bilan bevosita bog’liq ekani, ularning paydo bo’lishi ham udumlar bilan birga kechishi misollar va tahlil vositasida belgilab berildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Shahrisabz tumani xalq og’zaki ijodi tadiqiqiga bag‘ishlangan ushbu bitiruv malakaviy ishi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari geografik hududlar folklorini o’rganish bo‘yicha izlanish olib boruvchi tadqiqotchilar uchun muhim ma’lumotlar beradi. Shuningdek, o‘zbek folklorshunosligida Shahrisabz tumani folklorining ahamiyati va tahlili bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda tadqiqot natijalari material vazifasini o‘taydi. Ishda erishilgan natijalardan o‘zbek folklorshunosligida alohida olingan xalq og’zaki ijodi janrlari imkoniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlarini o’rganish bo‘yicha kelgusida magistrlik dissertatsiyalari, malakaviy bitiruv ishlari yozishda foydalanish mumkin.

Bitiruv ishi tarkibining qisqacha tavsifi. Ushbu bitiruv malakaviy ishining umumiyligi tavsifi, kirish, uch bob, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiyligi hajmi 64 sahifani tashkil qiladi.

II ASOSIY QISM.

I BOB. SHAHRISABZ TUMANI FOLKLORI VA UNING JANR XUSUSIYATI

1.1. Folklor- ma'naviyatimiz sarchashmasi.

O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi o'zbek xalqining asrlar davomida ijodkor farzandlari tomonidan yaratilgan madaniy merosidir. Bu meros maqollar, matallar, latifalar, qo'shiqlar, ertaklar, dostonlar va boshqa janrlardagi asarlardan iborat. Xalqimiz og'zaki ijodining tarixiy ildizlari Markaziy Osiyoda yashab o'tgan turkiy xalqlarning mifik dunyoqarashiga borib taqaladi. Mazkur mifik qarashlar O'rxun-Enasoy tosh bitiklari, «O'g'uznama», «Kitobi dada Qo'rqu», Mahmud Koshg'ariy tuzgan «Devonu lug'atit-turk», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» kabi adabiy asarlarida ham o'z ifodasini topgan.

«Folklor» atamasi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, «xalq donoligi», «xalq donishmandligi» ma'nolarini anglatadi. Bu atama birinchi marotaba 1846 yilda Vilyam Toms tomonidan qo'llangan va bugungi kunda jahon ilmu fanida xalq ijodi tushunchasini bildiradi. Masalan, biz «folklor» so'zini qo'llaganda xalq og'zaki ijodini nazarda tutamiz. Shu bilan birga «folklor» so'zi xalq amaliy san'ati, xalq me'morchiligi va boshqa sohalarni ifodalaydigan atamadir. Faqat har bir soha mutaxassis folklor deganda o'z sohasini, masalan, biz xalq og'zaki ijodini, xoreograf xalq raqsini, musiqashunos esa xalq kuylarini nazarda tutadi.

Folklor asarlarida xalq hayoti badiiy aks etadi. Shuning uchun xalq og'zaki ijodi so'z san'atining - badiiy adabiyotning og'zaki shakli sifatida o'rganiladi. Xalq og'zaki ijodining maqol, topishmoq, ertak, doston, tez aytish, sanamachoq, qo'shiq, askiya kabi janrlari bor. Xalqimiz tomonidan ming yillar davomida yaratilgan og'zaki ijod namunalari o'zbek xalqining tarixiy va qimmatli madaniy merosidir. Ayni kunlarda o'rganish va asrab avaylash qayta-qayta ta'kidlanayotgan xalq qadriyatlari tarkibida xalq og'zaki ijodi ham mavjuddir. Xususan, «To'maris», «Shiroq» kabi afsonalar, «Alpomish», «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Ravshan»,

«Oshiq G’arib va Shohsanam» kabi dostonlar, «Bulbuligo’yo», «Malikai Husnobod», «Uch og’a-ini botirlar» kabi ertaklar, lirik qo’shiqlar, marosim va mehnat qo’shiqlari hamda boshqa og’zaki ijod namunalari xalqimiz qadriyatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da xalq qadriyatlarining tarbiyaviy ahamiyati alohida qayd etilgan. Xususan, «Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari» bobining «Ma’naviy-axloqiy tarbiya va ma’rifiy ishlar» moddasida: «Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an’analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi», - deyilgan. Ushbu muhim davlat hujjatida xalq og’zaki ijodining asrlar bo’yi yosh avlodni tarbiyalash vositasi bo’lib kelganligi alohida ta’kidlangan.

Bugungi kunda ma’lum bo’lyaptiki, shaxsni tarbiyalashda uning ruhiy holatiga ta’sir qilmasdan samaraga erishib bo’lmaydi. Xalq og’zaki ijodida avlod tarbiyasi aynan ana shu usuldan foydalangan holda amalga oshiriladi. Jumladan, «Alpomish» dostonida Alpomishning soddaligi va ishonuvchanligidan foydalangan dushman uni va sheriklarini tuzoqqa tushiradi. Qahramonning bir kun may ichib hushyorligining yo’qotishi 7 yil zindonda yotishiga sabab bo’ladi. Yoki dostonda aka-uka Boybo’ri va Boysarining murosasizligi tufayli o’n minglab qo’ng’irotliklarning boshiga misilsiz ko’rgiliklar tushadi.

Bundan ma’lum bo’ladiki, dono xalqimiz psixologiya fanining zamonaviy yutuqlaridan bexabar holda yoshlarni tarbiyalashda eng ma’qul yo’lni tanlagan ekan.

Folklor deganda ma’lum «Alpomish» dostonining ming yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimda Prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimov shunday degan edi: «Alpomish» —o’zbekning o’zligini namoyon etadigan , mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan-avlodlarga o’tkazib kelayotgan qahramonlik qo’shig’idir». ¹

Ana shu fikrning o'zida og'zaki ijodimizni nima uchuno'rganamiz, degan savolga javob berilgan. Xalq og'zaki ijodini, qadriyatlarini bilmay turib, o'zbekman, deyish mumkin emas. O'zbek millatiga mansub insonning o'zbekman deyishga haqqi yo'q ekan, u odam xalqining yuziga oyoq qo'ygan ,ota-bobolari hurmatini haqoratlagan hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodi bilan yaqindan tanishish bu asarlarda inson tarbiyasiga oid hech qanday bo'sh o'rinn qolmaganligini ko'rsatadi. Xususan, ba'zi ertaklarda asar qahramonining ziyrakligini tekshiruvchi topishmoqlar mavjud. Bir qator epik asarlarda esa hayotda yomonlik qilgan shaxsning jazosiz qolmasligi ta'kidlanadi. Folklor yuksak badiiyligi bilan ham ajralib turadi. Unda voqelikni ifodalashning doston, ertak, maqol, qo'shiq, topishmoq, afsona, rivoyat va askiya singari xilmal-xil janrlari shakllangan. Xalq ijodiyotining voqelikni badiiy umumlashtirish oyin (prinsip)larida, shuningdek, bir qator kompozitsion usul (priyom)larida, chunonchi, sujet va uning uzvlari, obrazlilik, tasviriy vositalarida talay o'ziga xosliklar mayjud.

Folkorda tasvirlangan voqelik vaqt (zamon) e'tiboriga ko'ra o'tmishta daxldor, shu sababli u yoki bu janr tabiatida, shuningdek, til xususiyatlarida o'sha qadimiylizlarga saqlanib qolgan. Buni badik, kinna, olqish va qarg'ishlarda ibtidoiy ajdodlarimizning so'zning magik qudratiga sig'inganlari, shuningdek, folklor namunalari tilida arxaik ifodalar va dialektizmlarning farovonhgi yaqqol tasdiqlaydi. Folklor asarlari till — jonli so'zlashuv till, shu bilan birga arxaik ifodalar va dealiktizmlar ular uchun me'yor sanaladi. Bu xususiyati bilan folklor tili adabiy jihatdan sayqallangan badiiy adabiyot tilidan farq qiladi. Folklor tili — muttasil harakatdagi jonli so'zlashuv tili bo'lib, hamma zamonlarda ham adabiy tilning boyish manbayi bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi.

O'zbek xalq ijodiyotida ifodaviy-tasviriy vositalarning badiiy adabiyotdan farq qiluvchi o'ziga xos butun bir tizimi ishlangan. Bu xalq qo'shiqlaridagi ramziy obrazlar, doimiy sifatlashlar, an'anaviy qoliplar (klishelar), turg'un iboralarning ko'p va xo'bligida, folklor asarlari tilida erkalovchi, kichraytiruvchi

qo'shimchalarining serobligida, ayniqsa, muvoziylik (parallelizm), mubolag'a va sajning behad faol va o'ziga xos qo'llanilishida yorqin ko'rindi.

Folklor asarini aniq ijodkorga nisbat berib bo'lmaydi. Ularning yaratilishi paytini ham aniq ko'rsatishning imkoniy yo'q. Chunki folklor asari uzoq muddatli ijodiy jarayonda og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib, yuzaga keladi va yashaydi. Folklor asarlari muallifining noaniqligi — anonimligi (grek. anonomis-noma'lum) o'sha asarning qachonlardir individual ijodkor tomonidan yaratilganligini inkor etmaydi. V.G.Belinskiy aytganidek, folklorda «mashhur nomlar yo'q, uning muallifi hamisha xalqdir. Uning navqiron xalq yoki qabila ichki va tashqi hayotining jimmimatarsiz va aniq tasvirlangan oddiy va soddagina qo'shiqlarini kim to'qiganini hech kim bilmaydi va bu qo'shiq urug'dan urug'ga, avloddan avlodga o'tadi va vaqtlar o'tishi bilan o'zgarib boradi; goh uni qisqartirishsa, goh uzaytirishadi, goh yangidan to'qishadi, goh unga boshqa qo'shiqni ularhsa, goh unga qo'shimcha qilib, boshqa bir qo'shiqni to'qishadi, shunda qo'shiqdan doston chiqadi. Faqat xalq unga o'zini muallif sanay oladi. Adabiyot — boshqa ish; endi xalq emas, balki xalq hayotining turli tomonlarini o'z aqliy faoliyatlarida aks ettiruvchi alohida shaxslar uning arbobi. Adabiyotda shaxs to'la huquq bilan maydonga chiqadi va adabiy bosqich hamisha shaxslaming nomi bilan ajralib turadi». Ko'rindiki, folklor asarlari qachonlardir noma'lum shaxs (individ) tomonidan to'qilsa-da, og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tish jarayonida jamoa (kollektiv) ijodkorligi namunasiga aylanadi; jamoa ijodiy salohiyatidan to'lishib, mukammallahib, g'oyaviy-badiiy kamolot kasb eta boradi.

Abdurauf Fitrat bu masalaga o'z munosabatini biidira turib, og'zaki va yozma adabiyotlarning o'zaro tafovutli xususiyatlariga to'xtalarkan, «buning ayirmasi yozma bo'lmasligida, yo egasining ma'lum emasligini»ni ta'kidlab, «har bir doston, maqol, topishmoq, ashula, asosan, bir kishi tomonidan chiqoriladir-da, so'ngra umumiylashib ketadir», — deya folklor asari ham individual ijoddan boshlanajagiga, so'ngra «umumiylashib» jamoa ijodi mahsuliga aylanishiga ishora

qiladi.¹ Shu bilan birga, u folklorning asl mohiyatini xalqona ruhga sug’orilganligida ko’radi: «...el adabiyotini «adabiyot»dan (tor san’atkorona adabiyotdan) ayirg’on narsa, uning yozilmaganligi emas, uning ruhidir. U soddadir, tabiiydir, ko’pchilikning zavqiga yararlikdir!» Shu ma’noda folklor betimsol og’zaki badiiy-ma’naviy boylik ijodkori bo’lgan xalqning o’z badiiy tarixidir.

Shuni aytish o’rinliki, folklor qadim zamonlarda jamoaning ommaviy ijodi sifatida yuzaga kelgan edi. Ilk namunalariyoq hammabop va ommabop to’qilgan bo’lib, uning ijrosiga mo’ljallangan. O’sha zamonlarda shaxsiy ijodkor jamoadan hali to’la-to’kis ajralib chiqmagan edi. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning takomillasha borishi, xalq estetik tafakkurining o’sishi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi jarayonida davrlar o’tishi bilan alohida ijrochilar — qo’shiqchilar, ertakchilar, baxshilar, qissasoz-u qissaxonlar, latifago’ylar (bazlago’ylar), hazzollar (hazilkashlar), qiziqchilar, xalfalar o’z mahoratlari bilan yarqirab ko’rina boshladilar.² Ammo bu talantlar ham jamoa dahosi bilan ijodiy oziqlanib, og’izdan-og’izga, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o’tib kelgan asarlarni kuylar, ijro etar va albatta, shu jarayonda o’zidan ham nimanidir qo’shib, individual mahoratlarini namoyon etar edi. Tilla kampir, Sulton kampir, Jolmon baxshi, Bo’ron shoir, Jumanbulbul, Jassoq, Xonimjon xalfa, Bibi shoira, Ernazar baxshi, Riza baxshi, Suyar baxshi, Amin baxshi, Yo’ldoshbulbul, Sultonmurod, Qurbonbek, Xidir shoir, Yo’ldosh shoir, Suyar shoir, Sherna yuzboshi, Mulla Xolnazар, Haybat soqi, Qunduz soqi, Fozil Yo’ldosh o’g’li, Ergash Jumanbulbul o’g’li, Po’llkan Jonmurod o’g’li, Islom Nazar o’g’h, Saidmurod Panoh o’g’h, Abdulla shoir, Umir Safar o’g’li, Nurmon Abduvoy o’g’li, Xolyor Abdukarim o’g’li, Bola baxshi, Bolta baxshi, Qodir baxshi Rahim o’g’li va boshqalar o’z individual ijrochiliklari tufayli jamoa dahosi bilan yaratilgan asarlarni avloddan

1. ¹ Mirzayev T. O’zbek xalq og’zaki ijodi. – T.: O’qituvchi, 1990.

2. ² Mirzayev T. O’zbek xalq og’zaki ijodi. – T.: O’qituvchi, 1990.

avlodga yetkazib keldilar. Ularning ba’zilari esa shu jamoa ijodkorligiga xos an’analarga mustahkam tayangan holda o’zlari ham ijod eta boshladilar, aniqrog’i, an’anaviy dostonlar kuychisi darajasida qolib ketmay, baxshilikdan shoirlilik darajasigacha ko’tarildilar. Bevosita yosh bolalarning tarbiyasiga oid masalalar ham xalq og’zaki ijodi namunalaridan sezilarli o’rin olgan. Bu o’rinda topishmoqlarda majoziy fikr yuritilishini, tez aytishlarda nutq organlari shakllanishiga e’tibor berilganini, bolalar qo’shiqlarida estetik tarbiya bilan jismoniy tarbiyaning uyg’un ekanligini nazarda tutamiz.

Xalq og’zaki ijodi va xalq pedagogikasining aloqasi haqida maxsus fikr yuritilar ekan, o’rganilayotgan asarning ma’rifiy ahamiyatini ham e’tiborga olmoq maqsadga muvofiqdir. Chunki xalq og’zaki ijodida katta o’rin tutuvchi doston va ertaklar orqali yosh avlodga qadim zamonlarda quyosh, yer, suv, ot, tuya, yo’lbars, baliq, qaldirg’och, behi, chinor kabi tushunchalarning muqaddasligi uqtirilgan. Shuningdek, bunday asarlarda to’y, aza kabi marosimlar qanday o’tkazilishi haqida aniq ma’lumotlar berilgan. Natijada doston va ertaklarni tinglovchilar bir tomonidan, hayot, ikkinchi tomonidan, badiiy ijod namunalari orqali milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalanganlar. Bu esa bugungi kunda davlatimiz tomonidan alohida e’tibor berilayotgan umuminsoniylikni va milliylikni, mustaqillik mafkurasi asoslarini o’zlashtirish omili hisoblangan.

Folklorshunoslik fanining uch asosiy yo’nalishi bo’lib, shu yo’nalishlar fanning maqsad va vazifalarini belgilab beradi:

1. Folklor namunalari yig’ish - to’plash va yozib olish.
2. Folklor namunalarining mukammal nusxalarini nashrga tayyorlash va chop etish.
3. Folklor namunalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish.

Mana shu uch yo’nalishda olib boriladigan ishlar o’zaro uzviy bog’liq bo’lib, folklorshunoslikning nazariy va amaliy asoslarini belgilaydi.

XX asrning yigirmanchi yillarda o’zbek xalq ijodini to’plash, o’rganish ishlari jiddiy boshlanib ketdi. 1922 yilning yozida G’ozi Olim Yunusov Toshkent,

Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida ilmiy safarda bo'lib, ertaklar, qo'shiqlar, maqollar, topishmoqlar, juda ko'p dialektologik va etnografik materiallarni to'pladi.³

1921-1922 yillarda G'ulom Zafariy Farg'ona vodiysiga, shoir va olim Elbek Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumaniga safar qildilar va turli qo'shiqlar, laparlar, og'zaki drama namunalarini yozib oldilar. Shuningdek, Bekjon Rahmonov tomonidan Xorazmdan to'plangan besh yuz oltmishto'rt maqol va matallarni o'z ichiga olgan, «O'zbekcha otalar so'zi» to'plami 1923 yilda nashr etildi.

1926 yilda «Maorif va o'qitg'uvchi» jurnalida «O'zbek el adabiyotiga tegishli ma'lumotlarni to'plaguvchilarga qo'llanma» bosilib chiqdi. G'ozi Olim Yunusovning qator maqolalari e'lon qilindi. 1926 yildan boshlab deyarli har yili O'zbekistonning turli joylariga folklor ekspeditsiyalari uyushtirib kelinmoqda. Folklor ekspeditsiyalari davomida E. D. Polivanov, A. K. Barovkov, G'.O. Yunusov, N.P. Potapova, Hodi Zarif kabi atoqli olimlar rahbarligida turli joylarda ish olib borildi. Keyinchalik bunday ekspeditsiyalar F.M. Karomatov, T. G'oziboyev, M.X.Qodirov, M.S.Saidov, M. Murodov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, K. Imomov, O. Xolmirzayev, O. Madayev va boshqalar boshchiligidagi ham amalga oshirildi.

O'zbek folklorshunosligi o'zining dastlabki yillaridayoq katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Olimlarimiz xalq ijrochilariga ijodkor sifatida qarab, original kuzatishlar olib bordilar. Epik asarlarni to'g'ridan-to'g'ri u kuylanayotgan joy, sharoit va kuylovchining o'zi bilan bog'liq ravishda o'rganish kerakligi g'oyasini ilgari surdilar. Xalq ijodini o'rganishga metodologik jihatdan bunday to'g'ri yondashish Hodi Zarif (1905-1972)ning xalq baxshilari haqidagi maqolalarida ko'zga yaqqol tashlanadi.

3. ³ Mirzayev T. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: O'qituvchi, 1990.

O’zbek folklorshunosligining shakllanish davriga xos xarakterli xususiyatlardan yana biri folklor matnshunosligining ishlanishiga e’tibor berilishidir.

Xalq ijodini to’plash, o’rganish bilan bir qatorda uni nashr etish, xalqqa qayta taqdim qilish ham zarur. Bunda G’ozi Olimning Ergash Jumanbulbuldan yozib olgan «Alla» termasini, Hodi Zarifning Fozil Yo’ldosh o’g’lidan yozib olgan «Toshkent» va Po’lkan baxshi aytgan «Shayboniyxon» dostonini namuna qilib ko’rsatish mumkin.⁴

Shunday qilib, XX asr 20-yillarining 2 -yarmida o’zbek folklorshunosligi fani o’zining ilmiy yo’nalishiga ega bo’ldi va uning asosi yaratildi.

XX asr 30-yillarining 2-yarmida o’zbek folklorshunosligiga Mansur Afzalov, Sharifa Abdullayeva, Yusuf Sultonov kirib keldilar. G’afur G’ulom, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda va boshqa yozuvchilar, shoirlar ham folklor namunalarini yig’ish bilan shug’ullandilar.

Bu davrda folklorshunos Buyuk Karimov (1906-1945) ham o’zbek xalq ertaklari ustida samarali tadqiqotlar olib bordi. 1939 yilda «O’zbek xalq ertaklari»ni nashr ettirdi. Mazkur kitob ertaklar bo’yicha tuzilgan birinchi yirik to’plam edi.⁵

XX asr 30-yillarining 2-yarmida folkloarning deyarli barcha janrlarini o’rganishga va yozib olishga e’tibor kuchaydi. Sharif Rizo o’zbek xalq latifalarini to’plashga kirishdi va so’z boshi yozib, 1941 yilda 240 ta latifani 6 ta kitobcha holida nashr ettirdi. U «Guliston» jurnalining 1940 yil 4-sonida bosilgan maqolasida birinchi bo’lib qiziqchilar bilan askiyachilar bir-biridan farqlanadi deb yozadi. Olim maqolalarida Qo’qondagi bir guruh askiyachi va qiziqchilarning ijodiy faoliyatini yoritadi.

⁴ Madaev O. O’zbek xalq og’zaki ijodi. – T.: MUMTOZ SO’Z, 2010.

4 Mirzayev T. O’zbek xalq og’zaki ijodi. – T.: O’qituvchi, 1990.

XX asr 30-yillarining oxiriga kelib xalq dostonlariga jiddiy e'tibor berila boshlandi. H. Olimjon, M. Shayxzoda, Hodi Zarif, Shokir Sulaymon, M. Afzalov, B. Karimov, Y. Sultonov va boshqalar «Alpomish», «Shirin bilan Shakar», «Orzigul», «Murodxon», «Rustamxon», «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Malika ayyor» kabi o'zbek eposining eng yaxshi namunalarini nashr ettirib, o'quvchilar hukmiga havola etdilar.

Ikkinci jahon urushi davrida ham o'zbek folklorlarini o'rganish ishlari davom ettirildi. Bu yillarda yaratilgan ulkan tadqiqot, shubhasiz, V.M. Jirmunskiy bilan Hodi Zariflarning Moskvada 1947 yilda nashr etilgan, «O'zbek xalq qahramonlik eposi» kitobidir. Bu kitobda o'zbek folklorshunoslik fanining XX asr 40-yillariga qadar qo'lga kiritgan yutuqlari bir qadar umumlashtirilgan edi. Mazkur asar xalqimizning boy og'zaki badiiy ijodini dunyoga tanitishda asosiy rol o'ynadi va 1958 yilda Germaniyada nemis tilida bosilib chiqdi.

1956 yil 20-25 sentyabrda Toshkentda «Alpomish» eposi muhokamasiga bag'ishlangan hududiy kengash bo'lib o'tdi. Kengashda «Alpomish» dostonining g'oyaviy mazmuni, xalqchilligi borasida qimmatli fikrlar bayon etildi. Bu ulkan eposning qozoq, qoraqalpoq, tatar, boshqird, oltoy, tojik tarmoqlari haqida jiddiy mulohazalar yuritildi. «Alpomish» dostoni zararli emas, aksincha, xalq uchun juda zarur, foydali asar ekanligi isbotlandi.⁶

1960-1980- yillarda o'zbek folklorini ilmiy-nazariy o'rganish sohasida juda ko'p va yirik tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu davrga kelib xalq og'zaki ijodining badiiyati masalalarini tadqiq qilish birinchi darajali ish bo'lib qoldi. Atoqli folklorshunos olimlar Muhammadnadir Saidov «Malika ayyor» dostoni» (1964), «O'zbek xalq dostonlarida badiiy mahorat» (1969), To'ra Mirzayev «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari» (1968) monografiyalarini, Malik Murodov «Go'ro'g'li» turkumi haqidagi tadqiqotlarni yaratdilar. Ayniqsa, Hodi Zarifning «O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari» (1976) kabi maqolalari fan taraqqiyotida muhim o'rinn tutadi.

⁶ Madaev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2010.

Bundan tashqari, o'zbek xalq og'zaki ijodining ayrim masalalari bo'yicha T. Ashurov, T. G'oziboyev, X. Abdullayev, O. Madayev, T. Zufarov, A.Qahhorov, S. Ro'ziboyeva, O. Sobirov, M. Obidova, S. Yo'ldoshyeva, M. Mirzayev, K. Imomov, A. Musaqulov, M. Jo'rayev, M. Boboyevlarning ilmiy maqola va kitoblari e'lon qilindi.

Bu yillarda xalq baxshilari ijodi va repertuarini o'rganishga alohida e'tibor berildi. Hodi Zarif, Mansur Afzalov, Muzayna Alaviyaning tadqiqotlaridan keyin T. G'oziboevning «Fozil Yo'ldosh o'g'li» (1968), O. Sobirovning «Islom Nazar o'g'li» (1967), «Umr shoir Safarov» (1982), T. Mirzayevning «Xalq baxshilarining epik repertuari» (1979), M. Murodovning «Sarchashmadan tomchilar» (1986), M. Qo'shmoqovning «Chechanlikda so'zga suvdayin oqib» (1978), «Baxshilar xazinasi» (1981) kabi monografiyalari yaratildi.⁷

Folklorshunos Komiljon Imomovning «O'zbek satirk ertaklari» (1974) monografiyasida bu xildagi ertaklarning janr xususiyatlari, ulardagi an'anaviy sinov motivi, komik qahramon, ijtimoiy motiv va konflikt, satirk ertaklarning badiiy xususiyatlari va taqdiri, ertak va doston munosabatlari kabi muhim masalalar yoritilgan. G'ayrat Jalolovning «O'zbek xalq ertaklari poetikasi» (1976) monografiyasida esa sehrli-fantastik ertaklarning genezisi va morfologiysi masalalari tahlil qilinadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan manbalar asosida qadimgi davr folklorida quyidagi janrlar mavjudligi aniqlanadi: mif(asotir), afsona, rivoyat, qo'shiq, maqol va marosim qo'shiqlari.

Masalan, «Shiroq», «To'maris», «Rustami Doston» afsonlarida vatanparvarlik, chet ellik bosqinchilarga nisbatan nafrat ruhi bo'rtib turadi. «Avesto»dagi miflarda esa ezgulikning jaholat, zulm va zo'rlik ustidan g'alabasi muqarrar ekanligi ta'kidlanadi.

Xalq maqollarini o'rganish, sistemalashtirish va nashr ettirishdagi eng katta yutuq, shubhasiz, «O'zbek xalq maqollari» ikki tomligining yuzaga kelishidir

⁷ Mirzayev T. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: O'qituvchi, 1990.

(1987-1988), deya olamiz. Bu nashrga xalqimizning o'n uch mingga yaqin maqollari kiritilgan.

Adabiyot va folklorning o'zaro munosabatlarini o'rganish o'zbek folklorshunosligida XX asr 60-yillaridan boshlandi. Bu borada Natan Murodovich Mallayevning «Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti» monografisi (1974) katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu asarda ulug' shoiryning folkloriga munosabati, Navoiy va mifologiya, «Xamsa» qahramonlarining folklordagi zamini, Navoiy dostonlarining xalq variantlari, xalq og'zaki ijodida Navoiy obrazi kabi masalalar atroflicha yoritilgan.

O'zbek folklorshunosligi fani taraqqiyotiga namanganlik olimlar ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bu o'rinda Tojiboy G'oziboyev, Malik Murodov, Odiljon Nosirov, Mahmudjon Ma'murov, Dehqonboy Qozoqov, Abdushukur Sobirov kabi olimlarimizning, Robiddin Is'hoqov, Umarjon Sarimsoqov, Otash Xolmirzayev kabi shoir va o'qituvchilarning xizmatlarini ta'kidlab o'tish lozim.

Folklor taraqqiyotining bunday bo'linishi, albatta, shartlidir, Chunki folklor asarlari o'z xususiyatidan kelib chiqib barcha davrlar uchun umumiylilik kasb etadi. Shuningdek, ma'lum folklor asarining yaratilgan davri aniq bo'lmaydi. Ammo davrlashtirilganda ko'proq umumiylilik nazarda tutiladi, ya'ni ayrim yozma manbalar, tarixiy voqealar hisobga olinadi.

Qadimgi davr folklori deganda qadim zamonlardan to X asrga qadar yaratilgan va ijro etilgan folklor asarlarini nazarda tutamiz. Tabiiyki, bu davrda yaratilgan folklor asarlarini qaysi manba orqali o'rganamiz yoki boshqalardan qanday ajratamiz degan savol tug'iladi. Qadimgi davr folklori haqidagi ma'lumotlarni bizga qadar etib kelgan ayrim yozma manbalardan, arxeologik topilmalardan o'rganamiz.⁸

Qadim zamonlarda bugungi kunda qozoq, qirg'iz, turkman, tatar, boshqird, ozarbayjon, o'zbek, turk va h.k. deb atalayotgan turkiy xalqlar bir qavm

⁸ Mirzayev T. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: O'qituvchi, 1990.

hisoblanganlar. Shuning uchun XVII asrgacha «turkiy» deb nomlangan atama ilmiy adabiyotlarda ko'p uchraydi. «Avesto», «O'g'uznomá», «Kitobi Dada Qurqut» kabi asarlar qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodining yodgorliklaridir. To'g'ri, «Avesto»da forsiy xalqlar hayoti ham o'z ifodasini topgan. Ammo bu kitobda qadimga ajdodlarimiz ijodi ham aks etgan. «Avesto»ning muallifi esa xorazmlik yurtdoshimiz Zardusht bo'lganligi diqqatga sazovordir. «Avesto» yubileyining YUNESKO miqyosida nishonlanishi munosabati bilan bu haqdagi bilimlarimizga yanada aniqlik kiritildi va uning o'zbekchaga o'girilishi katta yutuq bo'ladi.⁹

XI asrdan boshlab «Qutadg'u bilig», «Hibat - ul haqoyiq», «Devonu lug'atit-turk» kabi yozma yodgorliklar ham vujudga kela boshladi. Bu asarlarga o'sha davr folklori ta'siri juda kuchli bo'lganligi yaqqol bilinib turadi. Ayniqsa, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» asari, qadimgi davr turkiy xalqlar folklorini o'rghanishda katta ahamiyatga ega.

1.1. To'y marosimlari

To'y marosimlari o'z ichiga bir necha bosqichlarni qamrab oladi. Ular quyidagilardir;

Sovchilik. To'y marosimlarining debochasi bu sovchilikdir. O'g'il voyaga yetganda ota-onasi unga mos keladigan qizni izlay boshlaydilar. Bu jarayonga yaqin qarindoshlari, qo'shnilar, oshnalari ham kirishadi. Qizni topgandan keyin yigitning xolalari yoki ammalari qizning uyiga uni ko'rish, ota-onalari bilan va ehtimoliy kelinning uydagi ahvoli bilan tanishish uchun biror bahona bilan kiradilar. Shundan so'ng qo'shnilar va tanishlari tanlangan qizning oilasi haqida surishtiradi. Ijobiy javob olingan holda uyga sovchilar yuboriladi. Sovchi ikki xonadonga qarindoshlik aloqalarini bog'lashga da'vat etilgan shaxs hisoblanadi.

⁹ Razzoqov H., Mirzayev T., Sobirov O., Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: O'qituvchi, 1980.

Shahrisabz tumanida sovchilar kuyov tomonning yaqin qarindoshlari yoki oilaning do'stlari orasidan tanlab olinadi. Sovchining so'zi mantiqli, ishonarli, tosh bosadigan, zalvorli bo'lmos'i lozim. Chunki ularning vazifasi juda mas'uliyatli hisoblanadi. Shu sababli ular dastavval o'zлari eshigini qoqmoqchi bo'lgan xonadonni, qizni, uning oilasi, urug'-aymog'ini yaxshilab surishtirishadi. Bu surishtirishlar xalq og'zaki ijodi namunalarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi:

Eshik oldi gulhovuz

Gul tergani kelganmiz.

Gulni bahona qilib

Yor ko'rgani kelganmiz.

Sovchilar yigitning oilasi nomidan qiznikiga, bo'lajak kelinnikiga borishadi. Odatda gap "qulchilikka keldik", "elchilikka keldik", "ostona supurgani keldik", "qizingizga xaridor bo'lib keldik", "sizda bir gul bor ekan, bizda bulbul" talqinida boshlanadi. Sovchilikning asosiy marosimlaridan biri fotiha to'yidir. Sovchilar fotiha qilinadigan kunni belgilaydilar. Shu kuni qizning uyida atrofdagi taniqli oqsoqolar, mahalla oqsoqoli, qizlar yig'iladi.

Non sindirish. Sovchilar o'zining kelish maqsadini bayon etganlaridan keyin «non sindirish» marosimi boshlanadi. Shu paytdan boshlab yoshlar bir-biri bilan bog'langan, fotiha qilingan deb hisoblanadi.

Fotiha to'yи nikoh tuziladigan va to'y o'tkaziladigan kunni tayinlash bilan tugaydi. Sovchilardan har biriga ikkita-ikkita non, shirinliklar bo'lgan dasturxon beriladi, shuningdek qiz tomonidan yigitga va uning ota-onalariga sovg'alar berib yuboriladi. Sovchilar kuyovning uyiga qaytganidan keyin ularning qo'lidan sovg'alar qo'yilgan patnislarni olib, «**sарро ко'rар**» marosimini boshlaydilar. Dasturxon odatda ko'p bolali ona tomonidan ochiladi. Buning ma'nosi bo'lajak yosh oilaning kelini ham shu onaxondek uvali-juvali bo'lib ketsin, deganidir. Barcha yig'ilganlar kelining uyidan keltirilgan pishiriqlar, shirinliklardan


bahramand bo‘ladilar. Fotiha to‘yidan boshlab va to to‘yning o‘zigacha yoshlarning ota-onalari qalin, sep masalalarini va to‘y tantanasi bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etadilar. To‘ydan bir necha kun avval qiznikida «**qiz oshi**» marosimi o‘tkaziladi, unga qiz o‘zining yaqinlari va o‘rtoqlarini taklif etadi. Qadimda bu bazm qizlarning eng yaxshi ko‘rgan , marosimi bo‘lgan. “O‘tkan kunlar” asarida bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. Qadimda shahrисabzliklar orasida “qiz qo‘sиг‘и” har bir “qiz oshi”da albatta kuylangan.

So ‘rorim bor, so ‘rorim bor

So ‘rorim bor go ‘shanggada yangalardan

Aytmasinlar menga yengil yallalardan-o

To‘y. Shahrисabz tumanida ham boshqa tumanlar kabi to‘ylar bir necha turlarga bo‘linadi.



Nikoh marosimi an'anaviy tarzda o'zbeklarning hayotida nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'ladi va ayniqsa tantanali nishonlanadi. Umumiy xususiyatlari bo'la turib, u turli viloyatlarda o'zgacha tusda bayram qilinadi. Nikoh marosimining asosiy payti kelining ota-onasining uyidan kuyovning uyiga o'tishi paytidir. To'y kuni kuyovnikida to'y oshi (palov) tayyorlanadi va kelinnikiga yuboriladi, u yerda u dasturxonga tortiladi. Xuddi shunday osh kuyovning uyida ham o'tkaziladi. To'y kuni masjidning imomi ikki yoshga «Xutbai nikoh» ni o'qiydi, shundan so'ng ular xudo oldida er-xotin deb e'lon qilinadi. Imom yoshlarga er va xotinning huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi. Odatda nikoh o'qilganidan so'ng yoshlar o'zining fuqarolik nikohini qayd etish uchun ZAGS ga boradi. To'y kuni kelinnikida kuyovga sarpo (to'yga sovg'a qilingan kiyimlar va poyafzal) kiydiriladi, shundan so'ng kuyov o'z oshnalari bilan kelining ota-onasi huzuriga salom berish uchun boradi. Kuyovning oshnalari bilan qaytganidan so'ng kelin ham keladi. Kuyovning uyiga yuborishdan avval kelinnikida ota-ona bilan xayrashish marosimi bo'lib o'tadi. Kelin bilan birga yaqin o'rtoqlari ham boradi. Ular qo'shiqlarni aytadilar («O'lan» va «Yor-yor» qo'shiqlari). Kelinni kuyovning uyida kutib olishdan haqiqiy to'y boshlanadi. To'y tugaganidan keyin kuyov kelinni ikki yosh uchun ajratilgan xonaning eshigigacha kuzatadi. Xonada kelinni «yanga» (odatda kelinga yaqin bo'lgan bir ayol) kutib oladi, kelin boshqa kiyim kiyadi va chimildiq (go'shangaga) ortida turib, kuyovni kutib olishga tayyorlanadi. Bir qancha vaqtidan keyin kuyov oshnalari bilan birga xonaga yaqin keladi va yanga bilan birga uni kelin kutib turgan gushanga oldiga boradi.

Kelinning oldiga kirish uchun u kelinni yangadan ramziy sotib olishi lozim, ular savdolashadi. Shundan keyin kuyov-kelin tuni bilan birga qoladilar. Ertalab azonda **«Kelin salom»** marosimi boshlanadi. Marosim boshlanishiga yaqin hovlida kuyovning ota-onasi, barcha yaqin qarindoshlari, kuyovning oshnalari va yaqin qo'shnilarini yig'iladi. Ularning hammasi navbat bilan kelinning oldiga kelib, o'zining tilaklari, sovg'alari va duolarini baxshida etadi. Kelin har bir kishiga beligacha egilib salom berishi lozim.

Kelin salom aytamiz

Avval Xudoga salom

Kelin salom aytamiz

Odam Atoga salom.

Hazorali

Kelin salom aytamiz

Momo Havoga salom.

Kelin salom aytamiz

Payg‘ambarlarga salom

Hazorali

Soydan ho‘kiz sudratgan,

Do‘mbirasin kuylatgan,

O‘g‘illarini uylatgan,

Salom-salom, kelin salom

Qaynotasiga salom!

Boshida ro‘mol quri bor,

Yuzida iymon nuri bor,

Beshigida tori bor,

Paragini xoli bor,

Qabul aylang onaxonlar

Sizga salom aytamiz

Salom-salom, kelin salom

Anaxonlarga salom.

Hazorali

Bir siqim undan non yopgan

Borgan joyini chog‘!

Hazorali

Mehmon kelsa xo‘s sh degan,

Mehmonxona bo‘s sh degan,

Salom-salom, kelin salom

Tog‘alariga salom!

Uzun etik poshnali,

kuyov jo‘ra oshnali,

Salom-salom, kelin salom

Kuyov jo‘ralariga salom.

Jun ko‘ftalar savagan,

Og‘irchaga don tuygan,

Bayramni qutlug‘ qilgan,

Momolariga salom!

Hazorali

Soydan tulki ovlatgan,

Tog‘dan o‘choq kovlatgan

Navro‘zni but qilib bergen

Bobolariga salom!

Hazorali

Salom-salom yor-yor, kelin salom yor-yor.

Qabul aylang aziz xalqim, sizga salom yor-yor!

etgan

Qaynonasiga salom!

Yor-yorlar matni bilan tanishar ekanmiz, ularda yosh oilaning kelajakda baxtli bo‘lishi, oila qurayotgan yoshlarning bir-biriga sadoqatliligi xususida umidlar bildirilganligiga amin bo‘lamiz. Yor-yorlarda yosh yigit va qizning yangi hayot bo‘sag‘asiga qadam qo‘yayotgani alohida ta’kidlanadi. Hayot tajribasi oilaviy turmush totuvlikdan boshlansa, inoqlik yetakchi bo‘lsa, keyingi hayot ham yomon o‘tmasligini ko‘rsatgan. Shuning uchun kuyov-kelinning inoq turmush boshlashi bu tur qo‘shiqlarda qayta-qayta tilga olinadi:

Shoyi ko‘ylak yengiga

Tut qoqaylik yor-yor,

Kelin-kuyov ko‘ngliga

O‘t yoqaylik yor-yor.

Xalq qo‘shiqlarini yozib olish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yor-yorlar xalq orasida boshqa mazmundagi qo‘shiqlardan kengroq ommalashgan. Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodidagi hamma janrlardan ko‘ra qo‘shiq o‘zining tez yaratilishi bilan ajralib turadi. Bu fikr yor-yorlarga ham taalluqlidir. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, shoirlik iste’dodiga ega bo‘lgan yor-yor ijrochisi to‘yning o‘tkazilish sharoitiga qarab, yangi-yangi to‘rtliklarni to‘qib ketaverган. Natijada, aynan to‘y o‘tkazilayotgan paytdagi vaziyatlar ham qo‘shiq matnida o‘z ifodasini topgan:

Qish kunida sovuq yeb,

Horib keldik yor-yor,

Achchiq-tirsiq kerakmas,

Koyib keldik yor-yor.

Ammo yor-yorlarning ayrim-ayrim namunalari qanday mazmunda bo‘lishidan qat’i nazar oxir-pirovardida yosh oilaga baxt tilangan.

Taxta-taxta ko‘prik

Taxting bo‘lsin yor-yor,

Payg‘ambarning qizidek

Baxting bo‘lsin yor-yor.

To‘g‘ri, lirik janrga xos bo‘lgan his-tuyg‘ularni ifodalash jarayonida qo‘sishiq ijrochilari o‘zlarining hayotlaridan o‘rin olgan ayrim noxush holatlarni ham ifodalashdan tortinmaganlar. Bunday qo‘sishiq namunalarida qizning yoshi katta odamga turmushga chiqayotgani, yashash jihatidan juda uzoq manzilga uzatilayotgani kabi lavhalar ham o‘z aksini topgan:

To‘yda qizlar o‘ynashib,

Ko‘ngli to‘lsa, yor-yor,

Yosh boshiga er qildi,

Chol ham bo‘lsa, yor-yor.

Yoki quyidagi to‘rtlikka e’tibor bering:

Uzoqqa borgan qizning

Rangi sariq, yor-yor,

Ko‘zidan oqqan yoshi

Misli ariq, yor-yor.

Ammo bevosita to‘yning o‘tkazilish sharoitini ko‘z oldimizga keltirsak, chor-atrofda o‘yin-kulgilarga e’tiborning kuchlilagini nazarda tutsak, yuqoridagi

qo'shiqlarda aks ettirilgan qayg'u-alamlar to'y ishtirokchilariga u qadar katta ta'sir ko'rsatmasligi ham o'z-o'zidan ravshan bo'ladi. Marosim qo'shiqlaridan yor-yorlar bir qator badiiy jihatdan mukammalligi bilan ajralib turadi. Xususan, bu qo'shiqlarda parallelizm tasvir san'atining namoyon bo'lishi ko'proq uchraydi. *Parallelizm* deganda, tasvirlanayotgan bir voqea-hodisani ikkinchi bir voqea-hodisaga qiyoslash nazarda tutiladi.

Tokchadagi qaychini

Zang bosibdi yor-yor,

Yangi tushgan kelinni

G'am bosibdi yor-yor.

Yoki:

Tog'da toychoq kishnaydi,

Ot bo'ldim deb, yor-yor

Uyda kelin yig'laydi,

Yot bo'ldim deb, yor-yor.

Yuqoridagi misollarda tokchadagi qaychining zang bosishi bilan kelinning g'am bosishi, toychoqning ot bo'lib kishnashi bilan qizning o'z oilasidan yot bo'lib ketishi qiyoslangandir. Bunday tasvir san'ati parallelizm hisoblanadi. Yor-yor qo'shiqlarining qofiyalanish tarzi ko'pincha (a-b-a-b), tarzda va ba'zan (a-b-v-b) tarzda bo'ladi. Yor-yorlar matnini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu qo'shiq turlari mehnat va mavsum-marosim qo'shiqlaridan qofiyalanishdagi mukammallik bilan ham ajralib turar ekan. Jumladan, yor-yorlarda «baxt», «taxt», «somon», «omon», «alvon», «polvon» kabi chiroylı qofiya misollarini uchratamiz. Bu qo'shiq turlari misralararo olti-etti bo'g'indan iborat bo'lib, turoq tizimi 4+3, 5+2 tarzida belgilangan. *Masalan*:

Qat-qat ko‘rpa ustida,

Piyolaman, yor-yor.

Yorga salom bergani,

Uyalaman, yor-yor.

Kelin salomlar ham marosim qo‘shiqlarining tarkibiy qismini tashkil etadi. An’anaviy kelin salomlarning boshlanish qismida Allohga, Muhammad payg‘am barimiz (s.a.v.)ga, Chahoryorlarga, avliyo va anbiyolarga murojaat qilish alohida o‘rin tutadi. Agar umuman xalq qo‘shiqlarini har bir qo‘shiqsevar shaxs ijro etaversa, hatto yor-yorlarni ham to‘rt-besh odam aytishi mumkin bo‘lsa, kelin salomlarni bitta qo‘shiqchi va ba’zan ikkita qo‘shiqchi ijro etishi odat tusiga kirgan. Kelin salom marosimi to‘y marosimidan alohida ajralgan holda o‘tkaziladi. Odatda, bu rasm orqali kelin salom ijrochisi o‘z mahorati bilan yig‘inga alohida fayz kiritishi mumkin bo‘ladi. Ehtimol, shuning uchun ham kelin salom ijrochilari mazkur qo‘shiqlarda humor detalidan unumli foydalanishga urinadilar. *Masalan:*

Husayni uzumning g‘o‘rasi,

Kuyov bolaning jo‘rasi,

Kuyov jo‘ralariga bir salom.

Yoki:

Ko‘ylaklari yamoqli,

Yopgan noni sanoqli,

Qaynonasiga bir salom.

Albatta, bunday kulgili o‘rinlarga jiddiy munosabatda bo‘lish to‘g‘ri emas. Kelin salom marosimini o‘tkazish jarayonini ko‘z oldimizga keltirsak, bunday qo‘sinq namunalari hech qanday asorat qoldirmasligiga ishonamiz. Chunki, aynan shundan keyin quyidagi namuna keltiriladi.

Yursa yo‘lni to‘ldirgan,

O‘tirsa so‘zni bo‘ldirgan,

Qaynonasiga bir salom.

Kelin salomlar boshqa qo‘sishlardan farqli o‘laroq uch misradan iborat bo‘ladi. Dastlabki ikki misra o‘zaro qofiyalanib keladi. Uchinchi misra esa <<bir salom>> so‘zlari bilan yakunlanadi.

Masalan:

Qora papoq yarashgan,

Qizlar izidan qarashgan,

Kuyov bolaga bir salom.

Shu tariqa bayram tugab, oilaviy hayot boshlanadi.

Beshik to‘yi.

Unda asosan boshqa to‘ylardan farqli erkaklar qatnashmaydi. Beshik to‘yi kuni qizning onasi qarindoshlari, qo‘ni-qo‘shnilarini olib, yasatilgan beshikni qudanikiga olib boradi va kirilayotganda alla aytildi.

Alla aytay jonim bolam, qulq solgin alla...

Shirin allam tinglab asta orom olgin alla...

Yuzlaringga tomgan suvga hayron bo‘lma alla-yoo

Baxtimga sen katta bo‘lgan, xazon bo‘lma alla

Baxtimga sen katta bo‘lgan, xazon bo‘lma alla

Istiqloling porloq sening, jajjiginam alla-yoo

Baxtimga sen katta bo‘lgan, xazon bo‘lma alla

Sevganimdan yodgorim sen oltin qo‘zim alla-yoo

Men sho‘rlikday to‘kilmagin ko‘rar ko‘zim alla

Alla, alla, alla-yooo



Ayrim taxminlarga ko‘ra alla so‘zi «Olloh» so‘zidan kelib chiqib yaratgandan chaqaloqni o‘z panohida saqlashni iltijo qilishga nisbatdur. Alla shunday bir qo‘shiqki uni hech zamonda, hech bir shoir yozolmagan, baxshilar to‘qib chiqarolmagan. Uni har bir yurak o‘zicha kuylaydi. Alla farzand tarbiyasi uchun bitilgan shoh asardir! Avvalo, “beshik soldi” marosimi bo‘lib o‘tadi. Bunda onaga non tishlatib, bu non bolalarga olib qochhirilgan. Beshik narisiga, ayvonga shirinliklar, turli meva qoqilari sochilib, bolalarga talashhib-tortishib tanovul qildirilgan. Bu bilan yangi tug‘ilgan bolaning umri shirin, mo‘l bo‘lib, uzoq yillar hayotda sochilgan rizq-ro‘zini yig‘ib-terib yeb yursin, degan ma’no anglashilgan. Beshik to‘yida bolani chillasi chiqib, uni beshikka belash marosimida ikki turmush ko‘rgan, eridan ajralgan xotinlar irim qilib qo‘yilmaydi. Beshikka muqaddas daraxt –tug‘dona shoxi kesib olib, osib qo‘yilgan. Bolaning yostig‘I tagiga pichoq, non parchasi qo‘yilgan. Isisriq tutatilib, tumor osilgan.

Beshik to‘yi bolalar uchun juda-juda quvonchli bayramdir. Chunki, ular o‘z saflariga noma’lum bir bolaning kelib qo‘shilayotganidan shodlanadilar. Umuman olganda, bolalik olami juda ham go‘zaldir. U har bir kichik narsadan xursand bo‘ladi.

Xatna to‘yi.



to‘yi). Bu marosim o‘g‘il bolalar uchun 3, 5, 7, 9 yoshga kirganda, kamdan-kam hollarda 11-12 yoshda o‘tkaziladi. Sunnat to‘yining o‘tkazilishi jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadi.

Xatna qilish to‘yi – islom tomonidan muqaddas deb e’zozlangan yana bir qadimiylar o‘zbek odatidir (sunnat O‘g‘il bolaning tug‘ilgan paytidan boshlab uning ota-onasi asta-sekinlik bilan kerakli narsalarning hammasini sotib olib, sunnat to‘yiga tayyorgarlikni boshlaydilar. Ko‘pincha oddiygina «to‘y» ham ataladigan marosimning o‘tkazilishidan bir necha oy avval unga bevosita tayyorgarlik boshlanadi. Qarindoshlar va qo‘snilar ko‘rpalarni tikishda, to‘y sovg‘alarini tayyorlashda yordam beradilar. Bularning hammasi ko‘p bolali onalarga topshiriladi. To‘ydan avval mahallada yashovchi oqsoqollar, masjidning imomi va qarindoshlarning huzurida Qur’on o‘qiladi.

Muchal to‘yi. Bu to‘yda insonning har 12 yilda bir o‘z yili kelishi munosabati bilan is chiqarib, belgi beriladi. Ayniqsa o‘zbekchilikda birinchi muchal to‘yi -12 yosh alohida nishonlanadi. Muchal to‘yini shahrisabzliklar asosan navro‘z bayrami arafasida nishonlashadi.

Oltin to‘y. Bunday muborak to‘ylar kishining 70-75 yoshlik davriga to‘g‘ri keladi. Ularning aksariyati to‘g‘ri yashab o‘tgani, qobil farzandlarni tarbiyalagani uchun piru-badavlat kishilar sifatini olgan. Oltin to‘ylar bizning xalqimiz uchun yangilik bo‘lib, er bilan xotinining turmush qurbanlariga 50 yil to‘lishi bilan o‘tkaziladigan marosim. Bu marosim dastlab shaharlarda ziyolilar orasida urf bo‘lib, keyin tarqalgan. Agar qiz-yigitning to‘yini ota-ona o‘tkazsa, «oltin to‘y» ni farzandlar o‘tkazadilar.

Hovli to‘yi. Qadimda bu to‘y qishloq doshlarning, qarindosh-urug‘larning katta hashari yo‘li bilan qurilgan yangi uuga ko‘chib kirilgach, xudoyidan keyin maxsus to‘y qilingan. Hovli to‘y munosabati bilan yanada shinam, ko‘rkam, orasta, xonakilashgan. Hovli to‘yidan keyingina yangi imorat o‘zlashtirilgan, unda yashashga o‘rganilgan, kirishilgan. Hozir esa uy hasher yo‘li bilan qurilmaydi (ayrim qishloq joylardan tashqari). Uyni olish uchun hech qanday yordam bermagan bo‘lsa ham oilaning yaqinlari “qachon endi hovli to‘y” deb qistashadi. Oilani yana xarajat qilishga undaydi. Bu to‘y ham nikoh to‘yidek oila uchun eng baxtiyor, tantanavor marosimdir. Boshpana, imorat hovlilik yosh oila endi oyoqqa turib olgan. Barqaror, qabila, qishloq, elatning koriga yaraydigan qo‘rg‘on sanaladi.

Ertalabki osh marosimi to‘y (sunnat to‘yi yoki nikoh to‘yi) va aza ma’rakasida (o‘limidan keyin 20 kun hamda bir yildan keyin) o‘tkaziladi. To‘yni o‘tkazuvchilar ertalabki oshning kuni va vaqtini avvaldan mahalla yoki kvartal qo‘mitasining jamoatchiligi bilan kelishgan holda belgilaydilar. Shu kunga qarindoshlar, qo‘shnilar va tanishlariga taklifnomalar yuboriladi. Bir kun oldin kechqurun «sabzi to‘g‘rash» marosimi o‘tkaziladi, unga odatda qo‘shniar va yaqin qarindoshlar keladilar. Sabzi to‘g‘rab bo‘linganidan keyin barcha ishtirokchilar dasturxonga taklif etiladi. Odatda sabzi to‘g‘rashga artistlar ham chaqiriladi. Ovqatlanish paytida oqsoqollar kelganlar o‘rtiasida ishlarni taqsimlaydilar. Ertalabki osh bomdod namoziningtugashi paytigacha tayyor bo‘lishi lozim, chunki namozdan chiqqan kishilar birinchi mehmonlar bo‘ladi. Ertalabki namoz tugagan paytda karnay-surnay va nog‘ora ovozlari ertalabki osh boshlanganidan xabardor etadi. Mehmonlar dasturxonga o‘tirib, fotiha o‘qiganlaridan keyin ularga non va choy tortiladi. Shundan keyingina laganlarda ikki kishiga birlagan hisobidan osh olib kelinadi. Ovqatdan keyin laganlar olib quyiladi, mexmonlar yana fotiha o‘qib, mezbonga minnatdorchilik bildirib ketadilar. Ular ketganidan keyin dasturxon tezgina yangi mehmonlarning tashrifi uchun tuzatiladi. Ertalabki osh odatda ko‘pi bilan bir yarim-ikki soat davom etadi. Shu vaqt mobaynida taklif etilgan artistlar

qo'shiq aytadilar. Ertalabki osh tugaganidan keyin faxriy mehmonlarga sovg'alar – odatda choponlar (milliy erkak to'nları) beriladi. Aza paytidagi ma'raka oshi shu bilan farq qiladiki, mehmonlar dasturxonga o'tirganlarida Qur'on suralarini o'qiydilar va o'lgan odamni xotirlaydilar. Ovqat tugaganda ham Qur'on suralari o'qiladi. Ma'raka oshida artistlar chaqirilmaydi, dasturxon bayram to'y oshiga qaraganda kamtarroq bezatiladi. Shuni aytib o'tish lozimki, bayram to'y oshi va ma'raka oshida faqat erkaklar xizmat qilib yuradi.

To'yda xalqimizning milliy xarakteri, o'zligi tor ma'noda aks etadi. Lekin to'ylar xalqimizninig ma'naviy yuksalishida qanchalik ijobiy rol o'ynamasin, uni o'tkazish bilan bog'liq ba'zi ortiqcha rasm-rusumlar, odat tusiga kirib borayotgan sun'iy udumlar jamiyatimizning rivojlanishiga, oila barqarorligini ta'minlashda salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Jumladan ba'zilarning mehnatsiz topgan boyliklari, ba'zilarning esa bola-chaqasini yaxshi yedirmaslik, kiyintirmaslik evaziga tejalgan mablag' hisobiga katta miqdorda qarz olishi, oila byudjetida mavjud mablag'ni to'liq sarf qilish hisobiga yoki ba'zi kimsalarning halol mehnatsiz qing'ir yo'llar bilan topilgan boyliklari evaziga yetti iqlimga nomi ketgan dabdabali to'y o'tkazishga intilishlari bozor munosabatlari sharoitida soxta boyvachchalikdan o'zga narsa emas. Soxta obro' orttirish uchun o'zini unutish hech kimga shon-shuhrat keltirmagan, keltirmaydi ham.

1.3. Mavsum marosimlari

Shahrisabz xalqi maishiy va iqtisodiy hayoti globallashuv jarayonida mavsumiy rasm-rusumlar bilan hamisha bog'liq edi. Abu Rayxon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida "Navro'z" bayramini ma'naviy meros sifatida tilga oladi. Shuningdek, shahrisabzliklar mehnat davomida bahor fasli dala ishlarining boshlanishi, kuz faslida hosil yig'ish, qish faslida turli marosimlarni o'tkazish amallarini bajarib kelgan. Bu haqida filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqov "Fan" nashriyotida chop etilgan "O'zbek marosim folklori" kitobida mukammal fikr

yuritadi. Muallifning e'tiborini jalb etadigan mulohazalaridan biri xalqimiz amalga oshirgan mavsum va marosimga oid tadbirlarning birortasi so'z san'ati namunalarisiz o'tkazilmasligini ta'kidlash bilan belgilangan. Xususan, "Sust xotin", "Choy momo", "Shamol chaqirish" kabi marosimlarning hammasida mavsum qo'shiqlari yetakchi hisoblanadi. Bu qo'shiqlarda xalq so'zning magiyasiga alohida ishonich bilan munosabatda bo'lgan. Aytileyotgan fikrlarning amalga oshuviga to'la ishongan. Shuning uchun ham umid bildiriladigan misralar mazkur qo'shiqlarning mohiyatini belgilagan. Mavsum-marosim qo'shiqlari xalq poeziyasining tarkibiy qismini tashkil etadi. Bu qo'shiqlar Shahrisabz xalqining qadimiyligi ommaviy bayramlari, oilaviy rasm-rusumlar bilan bog'liqdir. Mahmud Koshg'ariy ning «Devonu lug'otit turk» asaridan ma'lum bo'ladi-ki, mavsum va marosimlarga oid xalq qo'shiqlarining tarixi qadim o'tmish zamonlarga borib taqalar ekan. Shu paytlardan buyon mavsumlar almashdi, marosimlar muttasil o'tkazildi. Bu maro simlarda qo'shiqlar aytildi. Dunyoda birorta xalq yo'qki, turli munosabatlar bilan ommaviy bayramlarni nishonlamasin. Mavsum lar, diniy e'tiqodlar, tarixiy voqeа-hodisalar, milliy udumlar xalq bayramlari mazmunini tashkil etadi. Binobarin, bayramlarning o'tkazilishiga qarab, ulardagi so'z bilan bog'liq lavhalar mundarijasiga qarab o'sha xalqning tarixi, milliy xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Chunki bunday xalq shodiyonalarida shahrisabzliklar tomonidan raqsga tushiladi, qo'shiqlar aytildi, milliy liboslar kiyiladi, turli o'yinlar o'ynaladi, taomlar pishiriladi, tomoshalar uyushtiriladi. Olimlarning ma'lumot berishlaricha, mavsum-marosimga oid o'zbek xalq bayramlarining tarixi minglab yillar bilan o'lchanar ekan. Shular qatorida shahrisabzliklar ham bu marosimlarni ming yillardan buyon nishonlab kelishadi. Ularning ayrimlari yil fasllarining qulay yoki noqulay kelishi bilan ham bog'liq bo'lган. *Masalan*, yil quruq kelib, yomg'ir yog'masa «Yomg'ir chaqirish» marosimi («Sust xotin»); bug'doy, sholi boshoqlari yetilgan paytda shamol ularni payhon qilsa, shamol to'xtatish («Choy momo»); don mahsulotlarini shopirish paytida shamol bo'lmasa, shamol chaqirish («Yo, Haydar»); yil sovuq kelsa, quyoshga topinish; umuman, omadsiz yilda

qurbanlik keltirish marosimlari o‘tkazilgan. Al Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida «Navro‘z», «Ramush og‘am», «Bobo x vora» kabi o‘ndan ortiq mavsummarosim bayramlari xususida ma’lumot beriladi. Shahrисabz xalqi tarixiy va keyinchalik paydo bo‘lgan bayramlardan hozirgi paytda quyidagilarni nishonlayotganini qayd etish mumkin: Prof. B.Sarimsoqov xalq turmushida o‘rin egallagan marosimlarni ikki yirik turga ajratadi

1. Umumxalq tomonidan amalga oshiriladigan ommaviy xalq marosimlari.
2. Oilaviy marosimlar.

Agar qish, yoz, bahor, kuz fasllari bilan bog‘langan Navro‘z, Mehrijon, Xosil bayramlarini umumxalq nishonlaydigan marosimlar deb atasak, nikoh, sunnat, murt, beshik to‘ylari, aza marosimlarini oilaviy chegara bilan belgilaymiz.

Yomg‘ir chaqirish marosimi. Lalmikor deqonchilik bilan shug‘ullanuvchi kishilar bahor oylarida bo‘ladigan yog‘ingarchiliklarga qarab olinadigan hosilning cho‘g‘ini chamalaganlar. Bahor yomg‘iri el-yurt to‘kin sochinligini ta’minalashda juda katta ahamiyat kasb etgan. Agar bahorda yog‘in kam bo‘lsa, odamlar yomg‘ir so‘rab osmon ma’budlariga hamda avliyo va anbiyolarga sig‘inganlar, har xil marosimlar o‘tkazganlar. O‘zbeklar orasida qadimdan yomg‘ir chaqirish marosimlari o‘tkazib kelingan. Ularning ikki ko‘rinishi bizga qadar yetib kelgan. Birinchisi yada (jada) toshi vositasida o‘tkaziladigan marosim, ikkinchisi esa yomg‘ir tangrisi sust xotin bilan bog‘liqdir. Yada so‘zi qadimgi turkiy tildagi jat – jodugarlik so‘zidan olingan bo‘lib, sehrli kuch-qudratga ega bo‘lgan predmetga nisbatan qo‘llangan. Yada toshi obi-havoga ta’sir ko‘rsata oladi deb tushunishgan. Shuningdek, bu toshning ayrim kasallarga davo bo‘ladi deb ham hisoblashgan.

Yomg‘ir chaqirish marosimida tilga olingan Sust xotin o‘zining tarixiy ildizlariga ega. U zarbushiyning muqaddas kitobi «Avesto»da madh etilgan osmon suvlari tangrisi Tishtiriyaning xalq o‘rtasida keng tarqalgan nomlanishidir.

«Sust xotin» qo'shilg'i matnidan shu narsa ayon bo'ladiki, qo'shiq ijrochilari o'zlarining yil davomidagi umidlarini ham bayon etishga imkon topganlar.

«Sust xotin» marosimi O'zbekistonning Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlardagi ayrim qishloqlarda saqlanib qolgan. Bu marosimda 10-15 ayol ishtirok etib, poliz qo'riqchisiga o'xshagan qo'g'irchoq yasashgan, unga keksa ayolning kuylagini kiydirganlar. Qo'g'irchoqni shoir tabait ayollardan biri ko'tarib yurgan boshqa ayollar esa unga ergashganlar. Qishloq bo'yab aylanib yurishgan, barcha xonadonlarga kirib Sust xotin qo'shilg'ini ijro etishgan.

Sust xotin, suzma xotin,

Ko'lankasi maydon xotin,

Yomg'ir yog'dir, ho'l bo'lsin,

Yeru jahon ko'l bo'lsin.

Maysalar qulq yozsin,

Sutu qatiq mo'l bo'lsin!

Ayrim joylarda masalan, Jarqo'rg'on tumanidagi Qorliq qishlog'ida bu marosim faqat erkaklar tomonidan o'tkazilgan va «Sust xotin» so'zi o'mragi «So'z xotin» shaklida ishlatilgan.

Havolarni yog'dirgin, So'z xotin,

Bug'doylarni bo'ldirgin, So'z xotin.

Yomonning uyi kuysin, So'z xotin,

Dehqonlarga qut bergin, So'z xotin.

Buxoro oblastining Qorako'l va Olot tumanlarida yomg'ir chaqirish marosimida aytildigan qo'shiq «Chala xotin» deb yuritiladi. Yuqoridagi misoldan ma'lum bo'ladiki, qo'shiqning bosh maqsadi yomg'ir yog'dirish homiysi bo'lgan Sust xotinga murojaat qilish orqali dehqonchilik uchun qulay sharoit yaratishdan

iboratdir. Qo'shiq davomida yomg'ir yog'ishidan qurg'oqchilikning yo'q bo'lishi, kuzda yerga sepilgan bug'doylarning bosh tortishi, ya'ni boshhoq chiqqa rishi kuylanadi. Bu qo'shiqda tabiat manzarasi bilan aloqador misralarni ko'plab uchratamiz. Ko'klamda odamlarning o'ynab-kulishi, shaftolilarning barg yozishi, atrof maysalar bilan bezanishi, ajoyib gullarning ochilishi tasviri orqali ajdodlarimiz ona yurtga bo'lgan muhabbatini ifodalagan bo'lishlari ham ehtimoldan holi emas:

Yomg'ir yog'di, ho'l bo'ldi!

Yeru jahon ko'l bo'ldi!

Shaftolilar barg yozdi,

Sust xotin suzma xotin.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yashovchi mahalliy aholi <<Sust xotin>> marosimiga asosan ayollar tayyorgarlik ko'rishini va marosim ishtirokchilari ayollardan iborat bo'lishini alohida ta'kidlaydilar. Albatta, bu marosimga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda mahalla ayollarining o'zaro yanada yaqinlashuvini, bir-birlari bilan iliq munosabatda bo'lishlarini ham e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Mavsum-marosim qo'shiqlaridan <<Choy momo>> marosimida aytildigan namunalar ham o'zlarining qadimiyligi bilan e'tiborga loyiqdir. <<Choy momo>> marosimi dehqon yetishtirgan hosilga zarar yetkazuvchi tinimsiz davom etayotgan qattiq shamolni to'xtatish vaqtida o'tkaziladi. Bu marosimni <<Sust xotin>> kabi O'zbekiston viloyatlarida keng tarqalgan deya olmaymiz. Olimlar <<Choymomo>> marosimini Chimkent viloyatining Sayram tumanida ko'proq o'tkazilib turilishini ta'kidlaydilar. <<Choymomo>> marosimida asosan quyidagi qo'shiq ijro etiladi:

Choy, choy, choy momo,

Choy momosi o'libdi,

O‘g‘li yetim qolibdi,

Bosa-bosa beringlar.

Bosilib qolsin bu shamol,

Uga-uga beringlar,

Ugilib qolsin quv shamol,

Oblo-hu, oblo-hu,..

Shamol chaqirish marosimi ham ajdodlarimizning qadim zamonlarda o‘tkazgan odati hisoblanadi. Bu marosim haqida folklorchi olim B. Sarimsoqov faqat bitta qo‘sish saqlanganini ta’kidlaydi. Muhammad payg‘ambarning kuyovi Hazrat Aliga Haydar nomi bilan murojaat qilinadi va shamolni qo‘yib yuborishi so‘raladi:

Haydar, ota-onang o‘libdir,

Moli senga qolibdir.

Bolang suvga oqibdir,

Shamolingni qo‘yvor.

Xullas, «Yomg‘ir chaqirish», «Shamol chaqirish», «Shamol to‘xtatish» kabi mavsumiy qo‘sishlarning xalqimiz orasida hozirgi paytgacha yashab kelayotgan dehqonchilik kasbining o‘zbeklarda ham qadimiyligini, ham xalqimizning ajdodlar yaratgan qadriyatlariga cheksiz hurmat bilan qarashini isbotlaydi. Ajdodlar merosiga ehtirom bilan munosabatda bo‘lish esa xalqimiz kelajagiga umid bilan qarashimiz uchun ishonch hosil qiladi. O‘zbek xalqining og‘zaki ijodida oilaviy marosimlarning o‘tkazilishi ham nazarda tutilgan.

1. Mehrjon — quyosh ma’nosini anglatib, kun va tunning kuz faslidagi teng kelishida nishonlanadi. Bu marosim kuz faslida bo‘lib o‘tadi. Xosil yig‘ish paytida shukronalik bildirish uchun nishonlangan.

2. Hayit. Shahrисabzda hayitning ikki xili mavjud bo‘lib, shahrисabzliklar bu bayramlarga azaldan amal qilib keladi. Birinchisi – Qurbon hayiti, katta hayit deb ataladi. Uningb oldidan ikki kun qolganda, arafa kunlari nishonlanadi. Yolg‘on arafa, bir kun qolganda chin arafa, uchinchi kuni esa Hayit bayram qilinadi. Yolg‘on va chin arafa kunlari har bir xonadonda is chiqarilib, cho‘zma bo‘g‘irsoq, talqon, palov qilinadi. Qo‘shnilar bir-birlarini Hayit bilan muborakbod etib, xonadonlarga pishiriqlar chiqaradilar. Bolalar va o‘sмirlar chopqillab yaqin-uzoq xonodon, qarindosh-urug‘larni yo‘qlashga borib keladilar.

Kichik Hayit bu Ro‘zayi mohi Ramazon deb atalib, odatda ro‘za oyi yakunida o‘tkaziladi. Hayitlar “Iyid” deb ham ataladi. “Hayitingiz muborak bo‘lsin”, “iyidingiz qulluq bo‘lsin” tabriklarining ma’nosи bir xildir. Katta hayit butun dunyo umumxalq marosimi – haj, ya’ki Ka’baga ziyotga borib, haj nomozi o‘qish davridan boshlanib, ayrim joylarda 7 kungacha bayram qilinadi. Shahrисabz umuman, O‘zbekiston, O‘rta Osiyo xalqlari orasida Qurbon Hayiti hozirgi kungacha nishonlanib kelinadi.

3.Iyd qurban — iyd ramazondan 70 kun keyin qurbanlik keltirish marosimi.

4. Navro‘z — yangi kun, ya’ni yangi yilning boshlanishi. Navro‘z sharq xalqlari orasida bir necha ming yillardan buyon yashab kelmoqda. Ko‘p asrlar davomida makedoniyalik Aleksandr, arablar, mo‘g‘ullar kabi bir qancha bosqinchi qo‘shinlar Sharq xalqlarining umumiyy bayrami –Navro‘zni yo‘q qilib, halok qilib yuborishga harakat qiladilar. Shahrисabzliklar orasida shunday afsona yuradi:

Aleksandr turkiy xalqlar ustiga bostirib kelganda xalqni o‘ziga tobe qilish uchun uning madaniyatini, milliy qadriyatlarini yo‘q qilishga buyruq beradi. Muqaddas “Avesto”ni yo‘q qiladi, ilmli odamlarni qatl ettiradi. Ibodatxonalarini vayron qiladi. Ammo xalq baribir batamom unga bo‘ysunmaydi. Shunda uning ustozi Arastu “Agar turkiylarning qadriyatlarini yo‘q qilmoqchi bo‘lsang, avval “Navro‘z” bayramini ta’qiqla!” degan ekan. Navro‘z bayramiga Sovet davrida ham katta hujum uyushtirildi. Ammo qadimiy odatimiz bu galgi qatag‘ondan eson-omon

o‘tib oldi. Mana, bugun yana shahrisabzliklar ham barcha Sharq xalqlari, O‘zbekiston xalqi singari o‘z milliy urf odatini Navro‘z – Yangi yil bayramini bor malohati, boy-basti bilan ko‘z-ko‘z qilib o‘tkazayapdi. Navro‘z bayrami kecha bilan kunduzning tenglashgan payti, bahor faslining 21-22-mart kunlaridan boshlab bir hafta, o‘n kun davomida o‘tkazilgan. Bu bayram, avvalo, tabiatning jonlanishhi, yangilanishi, yangi yil bilan yurtimizga go‘zal Bahor faslining kirib kelib, kelinchakdek o‘z yashil sepini keng yoyishi bilan boshlangan.

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari xalq qalbidan o‘rin olgan sumalak, qulupnay, gilos, qovun sayillarida ham yurtdoshlarimiz guruh-guruh bo‘lib ko‘ngil ochish yig‘inlarini o‘tkazganlar va o‘tkazmoqdalar. Umumxalq bayramlari bilan bir qatorda oilaviy marosimlar (to‘ylar va aza) ham o‘zbeklar maishiy hayotida muhim o‘ringa ega. Oilaviy doirada o‘tkaziladigan bu rasm-rusumlarning hammasida qo‘sishiq jo‘rligi yonma-yon turadi. Sobiq sovet tuzumi davrida xalq qadriyatları qatori so‘zning mo‘jizaviy quvvatini inkor etish odati an’ana tusiga kirgan edi. Ruhiy dunyoning murakkab sir-sinoatlari mutlaq inkor etilar edi. Natijada xalqimizning asrlar bo‘yi davom etib kelayotgan yomg‘ir chaqirish, shamol to‘xtatish, shamol chaqirish, qurbanlik qilish orqali mushkul vaziyatni yumshatish kabi mavsum va marosim amallariga nolisandlik munosabati paydo bo‘lgandi. Ammo hamma gap shundaki, yuqorida nomlari qayd etilgan marosimlarning urf-odatlar sifatida o‘tkazilishi xalq hayotida ijobiy natijalar bergen. Shuning uchun ham xalqimiz mavsum va marosim odatlariga katta hurmat bilan qaragan va ularni muttasil ravishda o‘tkazib kelgan.

5. Darveshona. Bu marosim ham bahor faslida o‘tkaziladi. Shahrisabzliklar orasida bu marosim haqida shunday afsona bor. “Qadim-qadimda bir chekka qishloqda odamlar bir-biri bilan ahil-inoq bo‘lib yashar ekan. Qishloqning bir chekkasida bir oila yakka-yolg‘iz kichkinagina o‘g‘li bilan yashar ekan. Bir kuni ona o‘g‘lini uxlatib, o‘zi daryo bo‘yiga yalpiz tergani ketibdi. Shunda dushmanlar bostirib kelib, qishloqni vayron qilishibdi. Hamma erkaklarni o‘ldirib, ayollarni asir qilib olib ketishibdi. Ona uzoqdan qishloqdagi shovqinni eshitibdi-yu yugurib ketibdi.

Ammo kech bo‘lgsnekan. Hamma yoq yongan, buzilgan. Uyiga kirsa eri o‘lib yotganmish. Bolasi esa yo‘q ekan. Ona faryod qilibdi. Kimga dardini aytishni bilmay yig‘larmish. Atrofidagi hamma o‘lgan, faqat ular orasidagi bir keksa chol jon taslim qilolmay turishganmish. U ayolga bolasini olib ketgan xalq ko‘chmanchi qabila ekanligini aytibdi va ular ketgan yo‘lni ko‘rsatib yuboribdi. Ona ularning ortidan yo‘lga tushibdi. Qaysi qabilaga bormasin odamlar o‘sha ko‘chmanchilar kelishganini,. ular orasida kichkinagina bolakay ham bo‘lib, ularning xizmatini qilib yurganligi aytishar edi. Ona tag‘in faryod qilib boshidan o‘tganlarini aytib berardi. Odamlar uning atrofida to‘planib, unga turli taomlar olib ketishar edi. Lekin ona hech narsa yemas “o‘g‘lim topilmaguncha bir chimdim bo‘lsa ham tuz totmayman” der ekan. Ona yurib-yurib ko‘chmanchi yovuzlarni topibdi. Ularning qo‘liga oshpaz bo‘lib kiribdi-yu hammani zaharlab qishloqdoshlarini, o‘g‘lini qutqaribdi. Buni eshitgan xalqlar buni katta maydonda nishonlashibdi. Shundan beri “Darveshona” marosimi nishonlanadi.

II. SHAHRISABZ TUMANI MEHNAT QO'SHIQLARI

Qo'shiq san'atning insoniyat tomonidan eng oldin o'ylab topilgan turi deb taxmin qilinadi. Rivoyat qiladilarki, yer yuzidagi bиринчи qo'shiq Hobil otli o'g'li o'lganda, Odamato tomonidan aytilgan marsiya bo'lган ekan. Negaki, odamzod tug'ilibоq alla eshitadi, o'lganda yig'i bilan kuzatiladi. Shu sababli ham qo'shiq xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va keng tarqalgan janrlaridan biri sanaladi. Xalqning iste'dodli vakillari juda uzoq asrlar oldin ham o'zlarining nozik va murakkab tuyg'ularini, qora so'zga sig'maydigan kechinmalarini qo'shiqqqa aylantirganlar. shahrisabzliklar g'oyat ko'p miqdordagi xalq qo'shiqlariga egadir. Xalq qo'shiqlarini yaratish texnik taraqqiyot cho'qqiga ko'tarilgan bugungi kunda ham davom etayotganligi diqqatga molikdir. Shahrisabz xalqi qo'shiqlari ko'pqirrali va sertarmoqdir. Xalq qo'shiqlari (musiqiy folklor) — og'zaki an'anadagi musiqa turi. Ibtidoiy san'atda paydo bo'lган o'yin usullari, jodu aytimlari, tovushli signallardan tortib xalq ashula va cholg'u kuylargacha kabi shakllardan iborat. Boshqa musiqa turlaridan, asosan, turmush jarayoni (urfodat, marosim, bayram va boshqalar)ga bevosita bog'langanligi bilan ajralib turadi. Aksariyat musiqiy folklor namunalari sof estetik hodisalar ma'nosida emas, kundalik hayot (maishiy, mehnat, marosim va boshqalar) vazifalarini bajaradigan badiiy shakllar sifatida qaror topadi. Ko'pgina xalq musiqasi namunalari sinkretik shakllar bo'lib, bularda kuyohanglar so'z (ko'shiq, terma, lapar), raqs (o'yinraqs kuylari), tomosha (musiqiy tomosha) bilan uyg'unlashgan holda yuzaga keladi. Muayyan badiiy an'ana va shakl (mas, ohang) andozalariga asoslangan xalq musiqa namunalari turli davr va sharoitda (mas, tinglovchilar yoki ijrochilar tarkibi, ijro etish vaqgi, joyi va muhitiga qarab) o'zgaradi. Shuning uchun har bir musiqiy folklor namunasining bir necha varianti mavjud bo'ladi. Xalq musiqasida mintaqaviy, milliy va mahalliy uslublar ajratiladi (mas, o'zbek xalq musiqasida Buxoro—Samarkand musiqa uslubi, Surxondaryo—Qashqadaryo musiqa uslubi va boshqalar).

Mehnat qo'shiqlari quyidagi turlarga bo'linadi:

Mehnat qo'shiqlari

- Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar
- Chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar
- Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlar

2.1. Chorvachilik qo'shiqlari .

Xalqimiz qadimdanoq chorvachilik bilan ham shug'ullanib kelgan . Bu kasb xalqimiz hayotida muhim o'rinnegallagan . Chorvachilik sozining quyidagi ma'nosi bor: Chorvachilikqishloq xo'jaligining chorva mollarini boqish va urchitish, chorva mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanuvchi sohasi. Chorvachilik maxsulotlari. -O'tgan yildan e'tiboran chorvachilik ham foyda bera boshladi, — deydi bosh iqtisodchi Haydarali Jo'raev. Sopolli tepaliklar chorvachilik bilan ham shug'ullangan.¹⁰

Xalq orasida ot boquvchini yilqiboqar , tuya boquvchini tuyaboqar , sigir va ho'kiz boquvchini podachi , qo'y – echki boquvchini qo'ychivon yoki cho'pon , tovuq boquvchini – parrandaboboqar deyish an'anaga aylangan.

Ot ,tuya , ho'kiz kabi jonivorlar hamisha chorvador va dehqonning mehnat jarayonidagi yaqin ko'makchisi bo'lgan . Ular orqali qadimgi

¹⁰ O`zbek tilining izohli lug`ati. 5 tomlik.4-tom.-Toshkent: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-B.509.

ajdodlarimiz olis manzilni yaqin , mashaqqatli ishni oson qilishgan . Shu bois bu jonivorlarni qadimgi kishilar totem va kult darajasiga ko‘tarib ardoqlashgan . Ularga nisbatan alohida e’tibor bilan munosabatda bo‘lishgan . Hatto doston , afsona , ertak , rivoyat kabi xalq asarlarida bu jonivorlar bilan bog‘liq turli epik talqinlar paydo bo‘lgan . Aslida chorvachilik faoliyatining vujudga kelishiga ibtidoiy insonlarning u yoki bu jonivorga e’tiqod qo‘yishi , uni o‘ziga e’tiqod qo‘yishi , uni o‘ziga homiy va madadkor hisoblab, totem darajasida e’zozlashi , shu asosda yuzaga kelgan.

Chorvachilikka daxldor bo‘lgan qo‘shiqlardan sog‘im qo‘shiqlari sog‘iladigan hayvon turiga qarab turlanadi . Xalq orasida sigir sog‘ish jarayonida kuylanadigan qo‘shiqlar – “ xo‘sh – xo‘sh ” qo‘shiqlari yoki “ govmishim ” , qo‘yni sog‘ishda aytiladigan qo‘shiqlar “ turey – turey ” lar, echki sog‘ishda aytiladigan qo‘shiqlar esa “ churey – churey ” yoki churiyalar deyilgan . Ular sog‘ilayotgan hayvонни tinchlantirish , uni iydirish uchun kuylanadi . Chunki tinch va iyigan jonivordan ko‘proq sut sog‘ib olish mumkin. Sog‘im qo‘shiqlari sog‘ilayotgan hayvonga shaxs sifatida murojaat qilish, unga so‘z yordamida ta’sir ko‘rsatish tasavvuri bilan yaratilgani bois ularda tashxis (jonlantirish) san’ati markaziy o „rinda turadi . U kuylovchiga o‘z ichki dardlarini , ruhiy holatini , alam - iztiroblarini bayon qilish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi . “ Xo‘sh – xo‘sh ” lar ravon va tekis ohangda cho‘zib aytiladi . Ularda sigir , uning xatti – harakati , yemishi ta’rif – tavsif qilinadi . “ Xo‘sh – xo‘sh ” larni kuylashdan oldin sog‘uvchi sigirning bolasi – buzoqni emizishga qo‘yadi . Buzog‘ini ko‘rib sigir iyiydi. Shunda sog‘uvchi darhol buzoqni tortib , sigirni qo‘shiq yordamida iyitishda davom etadi va sutini sog‘ib oladi . “ Xo‘sh – xo‘sh ” lar sigirni iyitishiga ishonilgan . Bunda sigir obdon maqtalib , ta’rif – tavsif qilinadi .

Tog‘ bag‘rida o‘ting bor , xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh ,

Tepsinmagin jonivor , xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh .

Xumro –xumro suting bor , xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh ,

Sening oting siyirdir , xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh ,

Suvdan burning jiyirdir , xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh ,

Seni sog‘ib ichsin deb , xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh ,

Egam menga buyurdi , xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh ,

Oqil molim , xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh .

Tuyg‘un molim xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh ,

Mening aytgan gapimni xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh .

Oqil bo‘lsang anglag‘il xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh ,

Tuyg‘un bo‘lsang anglag‘il xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh .

Shahrisabz xalqi hayvonlar odamlarning gapiga tushinadi, degan aqidaga astoydil ishonishgan. Sigirni sog‘ishda avval uni agar sut bersa unga mukofot borligiga ishotiradi;

Tog‘ bag‘rida o‘ting bor , xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh ,

Tepsinmagin jonivor , xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh .

Xumro-bu sut sog‘iladigan maxsus idish.

Xumro –xumro suting bor , xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh ,

Sigir sog‘ish paytida qo‘shiq aytish ko‘proq tepag‘on sigirlarni sog‘ayotgan paytda uni tinchlantirish uchun kuylangan. Muloyim ovoz bilan, sekin-sekin kuylash sigirni tinchlatib, sog‘uvchi uchun qulaylik tug‘dirgan. Shahrisabz shevasida sigir – siyir deb aytildi.

Sening oting siyirdir , xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh ,

Suvdan burning jiyirdir , xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh

Keying o‘rinda sog‘ish uchun sabab keltiradi. Sog‘uvchi go‘yo sigirni bu ishni ataylab qilmayotganiga ishontirmoqchi bo‘ladi. Sigirlar ayollar tomonidan sog‘ilganligi sabab “egam” deb uy egasi, er nazarda tutiladi;

Seni sog‘ib ichsin deb , xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh ,

Egam menga buyurdi , xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh ,

Sog‘ish paytida sog‘uvchi tomonidan sigirning bir necha sifatlari sanaladi, hatto maqtaladi ham;

Oqil molim , xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh .

Tuyg‘un molim xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh ,

“Tuyg‘un” deyilishiga sabab esa sigir sog‘ilayotgan paytda tiqirlik qilaveradi. Shuning uchun uni “tuyg‘un” ya’ni “sezgir” deyishgan.

Mening aytgan gapimni xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh .

Oqil bo‘lsang anglag‘il xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh ,

Tuyg‘un bo‘lsang anglag‘il xo‘sh , xo‘sh , xo‘sh .

Chorvachilarning o‘ziga xos irimlari mavjud bo‘lib, bu shahrisabz xalqi orasida hozirgacha saqlanib qolgan. Masalan, ko‘z magiyasi , kinna kirishiga ishongan chorvador shahrisabzliklar zotdor , ko‘p sut beradigan sigirlarni yomon ruhlardan asrash uchun turli duolar yozilgan tumorlar, qalampirmunchoqlar yoki ko‘zmunchoqlar shodasini ilib qo‘yishadi. Hatto, kovushni kesib, ilib qo‘yish holatlari ham uchrab turadi. Aks holda , ko‘z tekkan sigir yo o‘ladi , yo kasallanib , kam sut bera boshlaydi deb irim qilingan . Bu irim xalq qo‘shiqlariga ham ko‘chgan.

Seni haydab boqayin ,

Ko‘z tumorlar taqayin .

Senga kimning ko‘zi tegsa,

O'sha "ko'z" ni topayin .

Qadimda chorvachilar yil fasllariga qarab ko'chib yurishgan. Ko'chish davri ancha vaqtini tashkil qilib, cho'pon bu vaqtini bekor ketkazmaslik uchun turli qo'shiqlar kuylashgan;

Hayt-a molim, hayda-yo

Borar manzil qayda-yo

Sho'rlik molim cho'llarda

Egasidek daydi-yo

Matndan shu narsa ayon bo'ladiki, qo'shiq ijrochilari o'zlarining yil davomidagi umidlarini ham bayon etishga imkon topganlar.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida Alp Ertunga "Afrosiyob) vafoti bilan marsiyalar keltirilgan. Bugungi kunda o'tkaziladigan nikoh to'ylaridagi yor-yorlar, kelin salomlar ham oilaviy marosimlarga talluqlidir. Bu qo'shiqlarda xalq oila hayotidagi ro'y bergen ko'ngilli yoki ko'ngilsiz voqeaga nisbatan o'z munosabatini bildirganiga guvoh bo'lamiz. Agar yor-yor va kelin salomlarda xursandchilik kayfiyati yetakchi bo'lsa, marsiyalarda inson boshiga tushgan kulfatning naqadar og'irligi ifodalanadi. Inson o'z hayoti davomida muttasil mehnat bilan shug'ullanadi. Chunki haqiqiy ma'nodagi inson uchun faqat mehnat turmush kechirish manbai hisoblanadi. Qadim zamonlarda ham shunday bo'lgan, hozir ham shunday, bundan keyin ham shunday bo'ladi. Shuning uchun xalq qo'shiqlarining salmoqli qismini mehnat bilan bog'liq namunalar tashkil etadi.

Folklorshunos olimlar mehnat qo'shiqlari o'z tarkibida ham turlarga bo'linishini qayta -qayta ko'rsatib o'tganlar. Shartli ravishda ularni o'rim, xo'p hayda, yorg'ichoq, turey-turey, churiya, sog'in kabilarga ajratish mumkin. Aslini olganda, bu qo'shiqlar, hunarmand, dehqonlar, chorvadorlar mehnat bilan

bog‘liqdir. Shuning uchun ba'zi bir adabiyotlarda mehnat qo'shiqlari hunarmandchilik, chorvachilik kabi nomlar bilan ayrib ko'satilgan.

"Folklorshunos olimlarning aniqlashicha, bosmachilik xarakati deb nomlagan fuqorolar urushi davrida sovet tuzumi g‘oyalari avj olgan ko'ngilsiz davrlarda ham o'nlab xalq tarixiy qo'shiqlari vujudga kelgan.Xalq qo'shiqlari vazn jihatidan barmoqda to'qilgan. Chunki turkiy tillar xususiyati, jumladan, o'zbek tili singarmonik til hisoblangani uchun barmoq vaznidagi ijodni taqozo etgan. Lekin biz mumtoz adaiyet ma'lumotiga ega bo'lgan xalq farzandlarining aruz vaznida yaratilgan xalq ham voz kechmaymiz. Ta'kidlaymizki, o'zbek qo'shiqlari asosan barmoq vaznida yaratilgan, ba'zi hollarda aruz vaznida yaratilgan xalq qo'shiqlari ham uyaraydi. Xalq qo'shiqlarida shakliy va mazmuniy tasvir vositalaridan keng foydalanilgan. Ularda favqulodda go'zal o'xshatishlar, ruhiy halat tasvirida mubolag‘alar, sifatlashlar keng o'rin olgan. Bizningcha, xalq qo'shiqlaridagi tovushdoshlik fazilatini alohida ta'kidlash lozim.

2.2 Dehqonchilikka aloqador qo'shiqlar

Dehqon mehnati erta bahorda yer haydashdan boshlanadi .Shu paytda dehqonlar qo'shiq kuylab , o'zlarini ovutganlar , og‘ir mehnat qiyinchiligini unutganlar. Quyida bu turga mansub ichki bo‘linishlarni ko‘rib o‘tamiz . Bu qo'shiqlarning vujudga kelishi va ijro etilishi sabablarini mehnat jarayoni bog‘lash maqsadga muvofiqdir. Chunki ajdodlarimiz shug‘ullangan mehnat turlarida muttasil ravishda takrorlanadigan harakat ustun turgan. odamlar bu zerikarli mehnatni ma'lum darajada ruhiy jihatdan osonlashtirishni istaganlar va qo'shiq aytishni o'ylab topganlar.

O'rog‘im olmos,

O'rishdan qolmas,

Sira ham tolmas,

O'rmasam bo'lmas.

O'rimchilarning shu tahlitdagi qo'shiqlari maxsus ritm asosida aytilgan. Ya'ni ular o'roqni ishlatishga qarab ohang tanlangan. Yanchiq qo'shiqlari yoki xo'p maydalar . Bu turkumga kiruvchi mehnat qo'shiqlari xalq orasida " Xo'p maydalar " , " Maydalar " , " Maydagul " deb yuritiladi . Ularni o'rilgan donni xirmon qilib yanchayotganda , mungli , baland ovoz bilan cho'zib ijro qiladilar . Bu xil qo'shiqlarda dehqonning yoz bo'yi qilgan og'ir mehnatlari natijasida yetishtirilgan hosilni tezroq yanchib olish istagi bayon etiladi . Poxolidan ayrilgan don dehqon uchun , poxoli esa ish hayvoni uchun qishki ozuqa ekanligi alohida ta'kidlanadi :

"Xo'p hayda-e, xo'p hayda, maydayo-mayda,

Qalqon qulog'im hayda, maydayo-mayda.

Temir tuyog'im hayda, maydayo-mayda,

Xirmonni qilgin mayda, maydayo-mayda".

Yuqorida qayd etilgan namunalarda, bizningcha, ham xalqimizning mehnatiga munasobati, ham har bir kichik imkoniyatdan poetik fikrlashga harakat qilishi seziladi. Qizig'i shundaki, o'zbeklar ham mehnat qurollariga, ham mehnatlarni osonlashtirayetgan hayvonlarga nisbatan o'ta hurmat bilan qaraganlar. Yuqoridagi parchalardan o'rinni olgan "O'rog'im olmos, o'rishdan qolmas" "Qolqon qulog'im, temir tuyog'im" kabi misralari fikrimizning dalilidir. Xullas, mehnat qo'shiqlarida halqimiz o'zining mehnat faoliyati tarixini ifodalagan, desak xato bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodida xalqning tarixi aks etadi, deganimizda tarixiy qo'shiqlarni ham nazarda tutamiz. To'g'ri, qo'shiqlarimiz namunalari tarkibida tarixiy qo'shiqlar soni u qadar ko'p emas. Ammo bugungi kunda to'plangan ma'lumotlar bu tur qo'shiqlarni alohida ajratish imkonini beradi, deb hisoblaymiz. Avvalo ta'kidlash lozimki, tarixiy qo'shiqlar ko'pincha, muhim tarixiy voqealarning badiiy ifodasi sifatida vujudga kelgan, qo'shiqlarni tahlil etish bu tarixiy voqealarning xalq hayetida alohida o'rinni egallaganini ko'rsatadi. Masalan, Muhammad Rahimxonidan keyin Xorazmda xonlik qilgan

Asfandiyer zamonida aholining hayeto'ta mushkul ahvolda qoldi. Ana shu vaziyatda kuyidagi qo'shiq yaratildi "Asfandiyor xon bo'ldi, Yurak-bag'rim qon bo'ldi, Yemishimiz chigit non bo'ldi. Ular bo'ldik bu xonlarning dastidan". Ma'lumki, 1914- yilda ro'y bergan bиринчи jahон urishi o'zbek xalqining minglab farzandlari hayetiga zomin bo'ldi. Chor Rossiyasi tomonidan ming-minglab pul hisobida olingan mollar yetmaganidek, xalq farzandlari ham xo'jalik ishlariga tortilganlar. Bu voqeadan Turkistondagi bironta oila zarar ko'rmay qolmadi. Oqibatda, xalq orasida bir qator qo'shiqlar paydo bo'lgan. Xususan:

"Poyizingizni jildirgan O't xonasi bilan do'ngalagi.

Dvinskaga ketgan .Mard yigitning bir bo'lagi.

Dvinskaga ketmas edi Mard yigitning bir bo'lagi,

Dvinskaga ketkazgan Nikalay poshsho zambaragi

Qо'ш haydashg' paytida ijro etiladigan qо'shiqlar qо'ш qо'shiqlari deyiladi Ularda qо'shchi yoki qо'shga qо'shilgan ho'kiz tilidan og'ir mehnatdan qilingan shikoyat yoxud ish hayvoniga murojaat motivlari yetakchilik qiladi . Qо'ш qо'shiqlarida ko'pincha uchta an'anaviy obraz ko'zga tashlanadi . Bular zolim boy , mehnatkash , qashshoq dehqon hamda ezlган, jabrlangan ho'kiz obrazlaridir .

Yotar joyim o'nqir – cho'nqir ,

Yotolmayman tinchim yo'qdir .

Tana to'shim bo'ldi chuqur ,

Men qо'shga qanday yarayman .

Yanchish qo'shiqlarida dehqon xo'kizga dalda berish uchun sho'x,
o'ynoqi uslubdagi qo'shiqlarni kuylashgan.
Temir tuyog 'im hayda .

Ostingda bosgan donni ,

Oyog 'ing qilsin mayda .

Sen po'stidan judo qil ,

Somoni senga foyda .

Xirmonni qilgin mayda ,

Agar jonivor tezlashmasa bu o'ziga ham ziyon keltirishini po'pisa ma'nosida eslatib o'tadi;

Ishni tamom qilmasang,

Joningga tinim qayda .

Men belginangga minib ,

Chu – chu deyman silkinib .

Dehqon mehnat o'zini ham toliqtirganini, o'zi ham charchab turganini dalda ma'nosida aytib o'tadi;

Charchab men ham jonivorim ,

Boraman ko'zim tinib .

Chu – he, jonivorim hayda ,

Boshingni yerga solma ,

So 'zimni og 'ir olma .

Ko 'zim ilinib ketganida ,

Tag 'in , to 'xtab qolma .

Chu –he, jonivorim , hayda ,

Xirmonni qilgin mayda .

Donni yig‘ib olmasak ,

Bizlarga tinim qayda .

Yorgichoq qo‘shiqlari . Yorgichoq qol tegirmoni bolib , u suv va shamol tegirmonlari kashf etilmasdan oldin paydo bo‘lgan . Uni qol yordamida aylantirganlar . Yorg‘ichoq aylantirish - og‘ir va unumsiz ish . Bu ishni , asosan, ayollar bajarishgan . Shu sababli yorgichoq qoshiqlarining ijodkorlari ham ayollar hisoblanadilar .

Yorg‘ichoq qo‘shiqlarida kun bo‘yi yorg‘ichoq tortishning jismoniy va ma’naviy mashaqqati , og‘ir toshni aylantirish ayol kishi uchun naqadar qiyin ekanligi , binobarin , tegirmonning undan afzalligi , ayollarning turmush tashvishlari mungli nidolar bilan kuylanadi .

Yorg‘ichoq tortmas edim ,

Och qolganimdan tortaman .

Dardlarimni aytmas edim ,

Kuyganlarimdan aytaman .

Kuyganim , kuydirganing ,

Har joyda borsam aytaman .

Hozirgi paytda Shahrisabzda odamlar yorgichoqdan foylananilmayotganligi bois unga aloqador qoshiqlar ham kuylanmay qoldi .

2.3. Hunarmandchilik qo‘shiqlari

Hunarmandchilikka aloqador qo‘shiqlar . Hunarmandchilik ishlarini

bajarish jarayonida kuylaniladigan qo‘shiqlar hunarmandchilk qo‘shiqlari

deyiladi . O‘zbek xalq hunarmandchilik qo‘shiqlari orasida charx yigirish , o‘rmak o‘rish , kashta , to‘n tikish , gilam , bo‘z to‘qish bilan bog‘liq qo‘shiqlar asosiy o‘rin tutadi .

Hunarmandchilik qo‘shiqlarida hunarmandlarning og‘ir turmush tarzi , ruhiy olami o‘z aksini topgan . Ularni to‘quvchilik va tikuvchilik tarzida ikki katta guruhgaga bo‘lish mumkin .

To‘quvchilik qo‘shiqlarida , asosan , xomashyoni tayyorlash va shu

jarayonni amalga oshiruvchi mehnat qurollari ta’rifi yetakchi o‘rinni egallaydi . Bu qo‘sinq turi charx qo‘shiqlari , o‘rmak qo‘shiqlari kabi ichki turlarga bo‘linadi .

Tikuvchilik qo‘shiqlari xalqimizning uzoq asrlar davomida shakllangan tikish – bichishga aloqador an'analarini ifoda etadi . Ular aksar hollarda tikiladigan kiyimlarning turlari va ularga daxldor e’tiqodlarga qarab ichki xilma – xillik hosil qilgan . Shu sababli bir kiyimga atalgan qo‘sinq namunasini boshqa bir kiyim tikish jarayonida aytib bo‘lmaydi . Shu zaylda bir – biridan farq qiluvchi kashtachilik , do‘ppido‘zlik , to‘ndo‘zlik , zardo‘zlik va boshqa turkumga mansub qo‘shiqlar paydo bo‘lgan.

Kulolchilik qo‘shiqlari. Shahrisabz kulollari mehnat jarayonida asosan o‘zlarining orzu-armonlarini kuylashga harakat qilishgan . Kulollar yakka tartibda mehnat qilganliklari bois qo‘sinq kuylash ularga dalda beruvchi mashg‘ulot bo‘lib xizmat qilgan . Kulolchilik qo‘shiqlarida xijron motivi ustunlik qiladi .

Aylan, aylan ko‘zajon Qo‘shiqlarning asosiy mazmunini ishq – muhabbat , insonning ruhiy olami va ichki kechinmalarini tasvirlash tashkil etadi .

Suv kelar aqta – aqta ,

Sandig'ing temir taxta .

Sendan boshqani yor desam ,

Qon yutay laxta – laxta .

Kulolchilik qo'shiqlarida kulolning sevgi – muhabbat , chuqur iztiroblarga olib keladigan qiyinchiliklar tug'diradigan davosiz , lekin qutlug' dard sifatida ta'riflanadi.

Baxti qaro kulolni

Butun ulus taniydi

Men yasagan ko 'zadan

yor suv ichsa qaniydi.

Qo'shiqlarda boshga ishq tushganida insonning qanday ruhiy vaziyatlarga tushishi , qalbidan qanday o'y – kechinmalar kechishi, yorni kutish manzaralari , u bilan qayerda , qanday uchrashish holatlari , uchrashuv chog'idagi g'ayritabiiy harakatlari , ko'z – u qoshlarning , yuzning bu paytdagi ko'rinishlari , o'ziga xos tarzda shunday ta'riflab va tavsiflab beriladiki, uni tinglagan har bir kishi qalbida chuqur hayajon va iliqlik paydo bo'ladi :

Biringda ko 'rdim bir pari ,

Kokillaring gul haydari .

O'zing qizlarning sardori ,

Yor buncha zor etding meni ,

Kimlarga xor etding meni .

Ikkingda ko 'rdim egilib ,

Qosh – ko 'zingga tikilib .

*Salomlar berdim bukilib ,
Yor buncha zor etding meni ,
Kimlarga xor etding meni .

Uchingda ko ‘rdim uchmadim ,
Xipcha belingdan quchmadim .

Oldingda bir jon bermadim ,
Yor buncha zor etding meni ,
Kimlarga xor etding meni .

To ‘rtингда ко ‘рдим то ‘лг‘ониб ,
Soching belingda cho ‘lg‘onib .

Shirin uyqungdan uyg‘onib ,
Yor buncha zor etding meni ,
Kimlarga xor etding meni .

Beshingda ko ‘rdim beshilib ,
Tol ipakdayin eshilib .

O‘n to ‘rt yoshimda qo ‘shilib ,
Yor buncha zor etding meni ,
Kimlarga xor etding meni .

Oltingda ko ‘rdim ovish – ovish ,
Kiyganing mahsi – yu kovush .

Qichqirsam bermaysan tovush ,
Yor buncha zor etding meni ,*

Kimlarga xor etding meni .

Yettingda ko 'rdim yetilibsan ,

To 'q bug'doydek sitilibsan .

To 'lin oydayin to 'libsan ,

Yor buncha zor etding meni ,

Kimlarga xor etding meni .

Sakkizingda ko 'rdim saharda ,

Gullar ochilar mahalda .

Bir muchchi bergin nahorda ,

Yor buncha zor etding meni ,

Kimlarga xor etding meni .

To 'qqizingda ko 'rdim to 'tiyo ,

Bulbulmidim go 'yo – go 'yo

Oshiq o 'lar kuya – kuya ,

Yor buncha zor etding meni ,

Kimlarga xor etding meni .

O'ningda ko 'rdim o 'ltirib ,

Bir kosa mayni to 'ldirib .

Har dam labingdan so 'rdirib ,

Yor buncha zor etding meni ,

Kimlarga xor etding meni .

Ko 'rdim seni o 'n bir yoshda ,

Etagingda har xil kashta .

Gul ochilar tog‘-u toshda ,

Yor buncha zor etding meni ,

Kimlarga xor etding meni .

O'n ikkida ko 'rdim yoshingiz ,

Qalamdir ikki qoshingiz.

O'zim bo 'lay yo 'ldoshingiz ,

Yor buncha zor etding meni ,

Kimlarga xor etding meni .

XULOSA

Bizga ma'lumki xalq og'zaki ijodi namunalarini orasida Qashqadaryo Surxondaryo vohasi folklori o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda imkon qadar Qashqadaryo viloyati Shahrисabz tumani folklori namunalarini tadqiq etdik.

- Folklor ekspeditsiyasi davomida yig'ilgan materiallar tadqiqi , xalqimiz yuksak ma'naviyatli , tafakkur salohiyati yetuk , boy ma'naviy xazinaga ega xalq ekanligini yana bir bor namoyon etdi . Qashqadaryo viloyati Shahrисabz tumani folklorini yig'ish, tahlil va tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga keldik. Hududdagi to'y marosimlari va ushbu marosimlar jarayonida ijro etiladigan folklor namunalarini o'zbek xalqining boy va yuksak ma'naviyati, ma'rifati, estetik dunyo qarashini namoyon etuvchi qadriyatlarimizdir. Marosimlar ichida kelin salom, ayniqsa " Hazorali" qo'shiqlari nafaqat mazmun balki badiiy jihatdan mukammalligi bilan ajralib turadi. Bizningcha qo'shiq tarkibidagi "Hazorali" birikmasi ayrim tadqiqotchilar aytganidek tarixiy shaxs Abu Ali ibn Tolibga nisbatan aytilmagan. Bu so'z birikmasining asli hazor-alik (ming salom) bo'lib, mazkur to'y marosimining mazmun-mohiyatiga mos keladi. Tadqiqotimiz davomida ayrim respondentlarimiz bu fikrimizni maqullashdi. Olib brogan kuzatuvlarimiz natijasida ushbu tumanda "beshik to'yi", "xatna to'yi", "muchal to'yi", "hovli to'yi" marosimlari o'tkazilishi ma'lum bo'ldi. Yana bir shaxsiy mulohazamiz shundan iboratki, xalqimiz ma'naviyatining oynasi sanalmish ushbu marosimlar keying paytda asl mohiyatidan uzoqlashib ba'zi hollarda o'zini ko'z-ko'z qilish, dabdababozlik kabi xunuk oqibatlarga olib kelmoqda.

Mavsum marosimlari ichida "Sust xotin", yoki yomg'ir chaqirish marosimi ayrim qishloqlarda "Suz xotin" shaklida ishlatilganiga guvoh bo'ldik.

Shahrисabzliklar orasida o'tkaziladigan "Darveshona" marosimi odamlar o'rtasidagi mehr-oqibat, birdamlik, o'zaro yordam kabi o'zbekona fazilatlarni

o'zida mujassam etgan udum sifatida ahamiyatlidir. Olib borgan kuzatuvlar natijasida ushbu udumning paydo bo'lishiga doir afsona ham yozib olindi va malakaviy bitiruv ishiga kiritildi.

O'zbek folklori janrlarining eng faol turi bo'lmish qo'shiqlari ham Shahrisabzliklar o'rtasida turli munosabatlar bilan ijro etilgan. Biz ishimizda mehnat qo'shiqlarining "Dehqonchilik", "Chorvachilik" va "Hunarmandchilik" bilan bog'liq turlaridan ayrim namunalarini tahlilga tortdik.

Ishimizda hududga oid lirik qo'shiqlar haqida to'xtalmagan bo'lsak ham mehnat qo'shiqlarining ayrim namunalarida, xususan, hunarmandchilik qo'shiqlarda ijro etuvchining ruhiy kechinmalari, ishq-muhabbat iztiroblari badiiy ifodasini topgan.

ILOVA







1.Qo'shshayeva Sarvigul momo Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani
Qani qishlog'i 71-yosh.

Seni haydab boqayin,
Ko'z tumorlar taqayin.
Senga kimning ko'zi tegsa,
O'sha ko'zni topayin.

2.Rahmonov Sattor bobo Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani Shovkan qishlog'i 83-yosh.

Temir tuyog'im hayda,
Ostingga bosgan donni.
Oyog'ing qilsin mayda,
Sen po'stidan judo qil,
Somoni senga foyda.

3.To'layeva Hosiyat momo Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani Miroqi qishlog'i 79-yosh.

Biringda ko'rdim bir pari,
Kokillaring gul haydari.
O'zing qizlarning sardori,
Yor buncha zor etding meni,
Kimlarga xor etding meni.
Qoshu-ko'zingga tikilib,
Salomlar berdim bukilib.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1 . Karimov I . A . Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch . – T . : Ma'naviyat , 2008 .
- 2 . Alaviya M . O'zbek xalq qo'shiqlari . – T . , 1959 .
- 3 . Alaviya M . O'zbek marosim folklori . – T . , 1974 .
- 5 . Boychechak . – T . : G'afur G'ulom , 1984 .
- 6 . Hojiahmedov A . Mumtoz badiyat lug'ati – T . : Yangi asr avlodi , 2008 .
- 7 . Imomov K . , Mirzayev T . , Sarimsoqov B . , Safarov O . O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi . – T . : O'qituvchi , 1990 .
- 8 . Jo'rayev M . O'zbek mavsumiy marosim folklori . – T . : Fan , 2008 .
- 9 . Ko'z ochayotgan chashmalar . O'zbekiston adabiyoti va san'ati .
20 . 07 . 2012 . – B . 1 – 6 .
- 10 . Madayev O . O'zbek xalq og'zaki ijodi . – T . : Mumtoz so'z , 2010
- 12 . Mirzayev T . , Safarov O . , O'rayeva D . O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi . – T . , 2008 .
13. Musaqulov A . O'zbek xalq lirikasi . – T . : Fan , 2010 .
- 14 . Oq olma qizil olma . T . : G'afur G'ulom , 1972 .
- 15 . Safarov O . O'zbek xalq og'zaki ijodi . – T . : Musiqa , 2010 .
- 16 . To'y muborak yor – yor . – T . : Ma'naviyat , 2000 .
- 17 . Umrboqiy qo'shiqlar . – T . : Sharq HMAK , 2013 .
- 18 . Folklor ekspeditsiyalarida to'plangan xalq qo'shiqlari :

2011 ; 2012 ; 2013 – yillar .

4. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor– ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. // Tafakkur jurnali, 2009, 3-son, 3-10- b.
5. Adabiyot nazariyasi. (M.Nurmuhamedov tahriri ostida) Ikki tomlik. Toshkent, 1978-1979.
16. Imomov K. T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1990. 304-b.
19. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. Toshkent, 2001. 256-b

23. Saidov M. O‘zbek xalq dostonchiligidida badiiy mahorat masalalari. Toshkent, “Fan”, 1969-yil
29. Internet manbalari

www.literature.uz

www.ziyouz.com

www.ziyouz.com

www.e-adabiyot.com

[www.adabiyot mazaralari](http://www.adabiyot.mazaralari)